

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____

t.f.n., dotsent V.T.Ishqumatov

2014 yil « ____ » _____

5140600 «Tarix» ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Amonov Iskandar Safarovichning

“Xitoyda Sin sulolasining hukmronligi davridagi iqtisodiy va siyosiy ahvol”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix » kafedrası katta o‘qituvchisi
Sh.Zokirov _____

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrası mudiri

_____ t.f.n., dots. Z.A.IIhomov

2014 y. « ____ » _____

M U N D A R I J A

K i r i sh _____ **3-9 betlar**

I – bob. Xitoyda Sin monarxiyasi hukmronligining o’rnatilishi.

1.1. Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi. _____ **10-24 betlar**

1.2. Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli (XVII-XIX asr boshi) _____ **25-35 betlar**

II – bob. Sin imperiyasining g’arb davlatlari yarim mustamlakasiga aylanishi.

2.1. Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi.
_____ **36-45 betlar**

2.2. Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi milliy ozodlik kurashini boshlanishi.
_____ **46-52 betlar**

2.3. Xitoyda monarxiyani ag’darilishi. Respublika ta’ sis etilishi.
_____ **53-61 betlar**

III – bob. Mavzuning metodik ishlanmasi. _____ **62-76 betlar**

Xulosa _____ **77-81 betlar**

K i r i sh.

Mavzuning dolzarbligi. XX asrning oxiriga kelib, butun jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Jahon siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Yangicha fikrlash, tarixiy voqealarni xolisona tahlil qilish kuchaydi. Tarixda xalq ommasining va shaxsning roliga baho berishda ob'ektiv tendentsiyalar vujudga keldi.

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida mana shu masalalarga atroflicha to'xtalib, tarixiy voqealarni xolisona yoritishga "butun tarixning tag-tomirigacha, ildizigacha nazar solishga"¹ da'vat etadi.

O'zbekiston Prezidenti jumladan, tarixda shaxsning roliga yangicha yondoshuv pozitsiyasini bayon etadi. Tarixda shunday shaxslar borki, ular o'z mamlakatining ravnaqi, gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo'shib, tarixiy madaniy yodgorliklar yaratib, o'sha davrlar haqida turli asarlar, qonunlar, esdaliklar yozib jahon madaniyatini, ma'rifatini boyitishga ulkan hissa qo'shganlar. Shunday shaxslar borki, ular o'zlaridan faqat vayronalik, xalqlar boshiga bitmas-tuganmas kulfatlar solib, tarixiy madaniy yodgorliklarni yo'q qilib, jahon madaniyatiga, ma'rifatiga faqat zarar keltirganlar.

O'zbekiston Prezidenti ana shunday tarixiy shaxslar haqida fikr yuritib, ularni bir-birlariga qiyoslab, taqqoslab ko'rsatadi.

¹ Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T. O'zbekiston. 1998.

Jumladan, bobokalonimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur va boshqalar haqida fikr yuritib, ularning jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan munosib hissalarini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, Amir Temur haqida gapirib, uning Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda bunyod etgan tarixiy-madaniy yodgorliklari, Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini tiklash haqidagi hatti-harakatlarini alohida ta'kidlaydi.

Yurtboshimiz bu o'rinda Amir Temur shaxsini Chingizxonga qiyoslaydi. Xo'sh, Chingizxondan nima qoldi? Undan faqat vayronalik, kulfat qoldi. U mavjud madaniyatni ham yo'q qilmoqchi bo'ldi. Ana, tarixda ikkita shaxsning o'ynagan roli va tutgan o'rni.

Prezidentimiz "Tarixiy shaxslarning xizmati ularning Vatan, millat ravnaqi yo'lida qilgan xizmatlari bilan belgilanadi".² deb ta'kidlaydi.

Biz Prezidentimiz asarlariga bejizga murojaat qilmadik. Chunki biz olib borayotgan bitiruv malakaviy ish darajasidagi tadqiqotimiz aynan tarixda bir tarixiy shaxsning tutgan o'rniga bag'ishlanmagan bo'lsa ham, Xitoy tarixida butun bir tarixiy davrni (salkam uch yuz yillik) o'z ichiga olgani bois, bu davrda manjurlarning Sin sulolasi vakillari, shuningdek xalq orasidan yetishib chiqqan tarixiy shaxslarni, jumladan, Xitoy xalqi ardoqlab kelayotgan buyuk demokrat Sun Yat-sen kabi shaxslarni o'rnini xolisona, hozirgi kun talablari darajasida o'rganishga bag'ishlanganligi bilan dolzarblik ahamiyatiga ega deb o'ylaymiz.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda avvalo mamlakatimiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov asarlaridan tadqiqotimning metodologik asosi sifatida foydalanildi.³ Mavzu yuzasidan o'zbek

² Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T. O'zbekiston. 1998. 24-bet.

³ Karimov I.A. "O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". T. O'zbekiston. 1993.

tilida yaratilgan adabiyotlar afsuski, juda kam bo'lganligi uchun rus tilida asosan Rossiyada va qisman Xitoy Xalq Respublikasida nashr etilgan adabiyotlardan foydalanildi. Bitiruv malakaviy ishning xronologik chegarasi asosan jahon tarixining yangi davriga to'g'ri kelganligi bois, mavzuga oid ko'plab ma'lumotlar “Novaya istoriya Kitaya”,⁴ shuningdek V.Sidixmenovning “Manjurskie praviteli Kitaya”⁵ nomli kitoblarida berilgan. Chunonchi, V.Sidixmenovning “Manjurskie praviteli Kitaya” nomli monografiyasida manjurlarning salkam uch yuz yillik hukmronligi davrida Sin sulolasi hukmdorlarining har biriga alohida to'xtalingan bo'lib, ularning boshqaruvini o'ziga xos xususiyatlari, olib borgan ichki va tashqi siyosatlari bu kitobdan joy olgan.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda shuningdek, “Novaya istoriya stran Azii i Afriki”,⁶ Rodriges A. tahriri ostida. “Novaya istoriya stran Azii i Afriki”,⁷ V.Vorontsovning Chan Kay-shi “Sud'ba Kitayskogo Bonoparta”,⁸ “Novaya i

Karimov I.A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T. O'zbekiston. 1997.

Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T. O'zbekiston. 1998.

Karimov I.A. “Tinchlik uchun kurashmoq kerak”. T. O'zbekiston. 2001.

Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T. O'zbekiston. 2011.

⁴ “Новая история Китая”. М. 1992.

⁵ Сидихменов В. “Манжурские правители Китая”. М. 1993.

⁶ Губер А. Ким Г. Хейфец Г. “Новая история стран Азии и Африки”. М. 1995.

⁷ Родригес А. тахрири остида. “Новая история стран Азии и Африки”. М. 2004.

⁸ Воронцов В. Чан Кай-ши .“Судьба Китайского Бонопарта”. М. 1988.

noveyshaya istoriya stran Azii i Afriki”,⁹ “Istoriya stran Azii i Afriki v novoe vremya”,¹⁰ “Xrestomatiya po novoy istorii 1640-1870”,¹¹ kitoblaridan foydalandim.

Tadqiqotimning ikkinchi bobini tayyorlashda Ye.Belovning “Revolyutsiya 1911-1913gg. v Kitae”,¹² V.Nikifirovning “Sinxayskaya revolyutsiya”,¹³ va Xitoy buyuk demokrati Sun Yat Sen qalamiga mansub “Sotsial’noe znachenie Kitayskoy revolyutsii”¹⁴ nomli kitoblaridan ijodiy foydalanishga harakat qildim.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda, G.Hidoyatovning “Jahon tarixi” (1914-1945 yillar),¹⁵ M.Lafasov, E.Holiqov, D.Qodirovalarning “Jahon tarixi”,¹⁶ G.Hidoyatovning “Jahon tarixi” (1945-2002 yillar)¹⁷ nomli kitoblaridan, shuningdek, Sh.Atadjanov, Sh.Zokirov, U.Musaevlar tomonidan yaratilgan “Osiyo Afrika mamlakatlarning yangi tarixi” (1640-1914 yillar)¹⁸ nomi ostida nashr qilingan kitoblardan ham foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash davomida Xitoy tarixiga oid bo’lgan, bevosita Xitoy Xalq Respublikasida nashr etilgan “Kitay i mir vo vsem mire”,¹⁹

⁹ Розалиев Ю.Н. “Новая и новейшая история стран Азии и Африки”. М. 1987.

¹⁰ Юрьев М.Ф. тахрири остида.История стран Азии и Африки в новое время” II Часть. М. 1986.

¹¹ “Хрестоматия по новой истории 1640-1870”. Пособий для учителя: Сироткина Г. тахрири остида М.Просвещение.1990.

¹² Белов Е.А. “Революция 1911-1913гг. в Китае”. М. 1958.

¹³ Никифиров В.Н. “Синьхайская революция”. М. 1979.

¹⁴ Сун Ят-Сен. “Социальное значение Китайской революции”. М. 1964.

¹⁵ Hidoyatov G.A. “Jahon tarixi”.Eng yangi davr I-qism. (1914-1945 yillar). Darslik. T.Sharq. 2002.

¹⁶ Lafasov M. Holiqov E. Qodirova D. “Jahon tarixi” 9-sinf. Darslik. T.Sharq. 2004.

¹⁷ Hidoyatov G.A. “Jahon tarixi”.Eng yangi tarix II-qism. (1945-2002 yillar). Darslik. T.Sharq. 2003.

¹⁸ Atadjanov Sh. Zokirov Sh. Musaev U. “Osiyo Afrika mamlakatlari yangi tarixi”. (1640-1914 yillar). O’quv-uslubiy qo’llanma. T. 2011.

¹⁹ “Китай и мир во всем мире”. КНР. Пекин. Меж. конт. изд. Китая. Синьсинь. 1996.

“Chto nado znat ob osnovnom zakone OAR Syan’gan”,²⁰ “Syangan – osobiy administrativniy rayon Kitaya”,²¹ “Kitayskiy faktor i ekonomika Syangana”²² kabi adabiyotlarni o’rganib chiqildi va o’rinli foydalanishga harakat qilindi.

Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasida so’nggi yillarda nashr etilgan “Puteshestvie na Rodinu Den Saopina”²³, “Kitay – velikaya derjava nomer odin”,²⁴ “Nado li Rossii boyatsya Kitaya”,²⁵ “Mirovaya politika i mejdunarodnie otnosheniya”,²⁶ “100 velikix politikov”,²⁷ “Kitay: polveka – dve epoxi”²⁸ nomi ostida nashr etilgan va boshqa adabiyotlardan o’rinli, ijodiy foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi darajasidagi tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida Xitoy tarixida salkam uch yuz yillik davrni o’z ichiga olgan tarixiy jarayonlarni xolisona o’rganishni maqsad qilib qo’yildi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot oldiga qo’yidagi asosiy vazifalar:

- Xitoyda manjurlar istilosi arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol, istilo jarayonlari va Xitoy xalqining Sin sulolasi boshchiligidagi manjur bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi masalalarini tadqiq qilish;

²⁰ Лю Цинцюан. Что надо знат об основном законе ОАР Сянган. Меж. конт. изд. Китая. Синьсинь. Пекин. 1996.

²¹ Ван Цяолун. Сянгань–особый административный район Китая. Меж.конт.изд.Китая.Пекин.1997.

²² Цай Чимен. “Китайский фактор и экономика Сянгана”. Меж. конт. изд. Китая. Пекин. 1997.

²³ Галенович Ю.М. “Путешествие на Родину Ден Сяопина”. М. 2002.

²⁴ “Китай-великая держава номер один”. Петербург. Изд. Петербург. БХВ. 2012.

²⁵ Беззубцев-Кондаков А.Э. “Надоли России бояться Китая”. Петербург. Изд. Питер. 2011.

²⁶ Ачкасов В.А. Ланцев С.А. “Мировая политика и международные отношения”. М. Изд. Аспект. Пресс. 2011.

²⁷ Соколов Б.В. “100 великих политиков”. М. Вече. 2012.

²⁸ Делюсин Л.П. “Китай: полвека – две эпохи”. М. 2001.

- XVII asr ikkinchi yarmi XIX asr boshlarida Xitoyda manjurlarning Sin sulolasi boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yoritib berish;

- Xitoyga g'arbning kapitalistik davlatlarini kirib kelishi, uning oqibatlari, feodal tartiblar va ajnabiylar asoratiga qarshi Xitoy halqi olib borgan kurash masalalarini ochib berishga intilish;

- Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirilishi va Xitoy xalqining mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik va demokratik harakatlari masalalarini tahlil etib berish;

- Xitoyda Sinlar boshchiligidagi manjurlar hukmronligini uzil-kesil inqirozga uchrashi, inqilobiy harakatlarni rivojlanishi Sinlar monarxiyasini ag'darib tashlash harakatlari jarayonlarini tadqiq etishni asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Bitiruv malakaviy ishi darajasidagi tadqiqotimizning metodologik asosini Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning haqqoniy tarixni o'rgatishning ahamiyati yoritilgan asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyul' 315-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tashkil qiladi.

Tadqiqotning ob'ekti. Xitoy tarixida salkam uch yuz yil hukmronlik qilgan manjurlarning Sin sulolasi davrida yuz bergan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar men tayyorlagan tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu Bitiruv malakaviy ishini yozishda ko'plab adabiyotlar, chunonchi avvalo bevosita XXRda nashr etilgan, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida chop etilgan adabiyotlar, ayni vaqtda sobiq SSSR davrida chiqqan adabiyotlarni o'rinli, ijodiy va tanqidiy o'rganish asosida Bitiruv malakaviy ishi darajasidagi tadqiqot materialini yaratildi, o'ylaymanki, ulardan turli ilmiy maqola, ma'ruzalar tayyorlashda foydalansa bo'ladi.

Mazkur tadqiqot ishi materiallaridan O'rta maxsus ta'limi muassasalari-akademik litsey, kasb-hunar kollejaridagi jahon tarixining yangi davrini o'qitishda, dars mashg'ulotlarida, shuningdek tarix faniga doir darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining strukturasi. Mazkur Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, beshta paragrafdan iborat nazariy qism, uchinchi bob mavzuning metodik ishlanmasi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek glossariy va ilova qismidan tarkib topgan.

I – bob. Xitoyda Sin monarxiyasi hukmronligining o'rnatilishi.

1.1. Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi.

Xitoy XVII asr boshlarida 1368 yili hokimiyat tepasiga kelgan Min sulolasi boshchiligidagi rivojlangan feodal davlat edi. Dengiz bo'yiga yaqin xududda joylashgan shaharlarda, shuningdek Yantszi daryosi havzasidagi shaharlarda xususiy manufakturalar bo'lib, dengiz bo'yi viloyatlarining alohida rayonlarida zirotchilikda yollanma mehnatdan foydalanish muayyan darajada tarqalgan edi. Xususiy manufakturalarning paydo bo'lishi va qishloq xo'jaligida yollanma mehnatdan foydalanish Xitoyda yangi ishlab chiqarish munosabatlari elementlarini tug'ilganligidan dalolat berardi.

Zamindorlar qo'lida yer mulklarining konsentratsiyasi natijasida dehqonlarning ommaviy yersizlanishining boshlanishi, qo'shnilar (yaponlar, mo'g'ullar, manjurlar) bilan urushlarga qilinadigan harajatlarni ko'payib borishi bilan soliq yukini ortib ketishi, markaziy va mahalliy davlat apparatidagi poraxo'rliklar, shaharlar va ayniqsa qishloqlar aholisining qashshoqlashuvi chuqur ichki inqirozni keltirib chiqardi. Min imperiyasidagi bu inqiroz XVI asrning ikkinchi yarmidayoq ko'zga tashlangan bo'lsa, 1628-1646 yillardagi dehqonlar urushi va manjur bosqinchilarining XVII asrning 30-40 yillaridagi xurujlari davrida yana ham keskinlashdi.

Shafqatsiz feodal zulm, ommaviy ocharchiliklar va qashshoqlik dehqonlarni bosh ko'tarishga majbur qilgan edi. Qo'zg'olon ko'targanlarga hukumat

amaldorlarining soliqlaridan xonavayron bo'lgan hunarmandlar ham ko'pincha qo'shilib ketardilar. Urushga aylanib ketgan dehqonlar harakatlari XVII asrning 30-yillarida Shensi, Xenan, Xubey, Gan'su va Sichuan viloyatlarini qamrab oladi. Harakat davomida Li Tszi-Chen, Chjan Syan'-Chjun kabi jasur dehqonlar yetakchilari yetishib chiqdiki, ular atrofida qo'zg'olonga ko'tarilgan xalq jipslashgan edi. Bir necha yillar davomida dehqon otryadlarining mahalliy zamindorlar va Min hukumati qo'shinlari bilan olib borgan kurashi tanaffuslar bilan muvaffaqiyatli kechdi. 1641-1642 yillarda qo'zg'olonchilar Li Tszi-Chen boshchiligida yirik shahar Kayfinni qamal qildilar, biroq uni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lmadilar. Shunda ular Janubga, Xubey viloyatiga yo'l olib, u yerda San'yan shahrini egallaydilar. Bu yerda qo'zg'olon rahbarlarining yig'ilishi bo'lib, Min poytaxti Pekinga yurish to'g'risida qaror qabul qilinadi. 1643 yilning noyabrida Li Tszi-Chen qo'shinlari yirik viloyat markazi – Sianni egallaydilar. Yerni teng taqsimlab berish, soliqlarni bekor qilinishi to'g'risidagi shiorlar qo'zg'olonchilar saflariga yangidan-yangi kuchlarni kelib qo'shilishini ta'minladi va ularni xalq ommasi tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanishiga olib keldi. Poytaxt yo'nalishida xujumni muvaffaqiyatli rivojlantira borib, Li Tszi-Chen qo'shinlari 1644 yilning 25 aprelida Pekinga kiradilar. Qo'zg'olonchilarni shaharning ta'qiqlangan qismiga kirishi arafasida, bu yerdagi hukmdor xonadoni rezidentsiyasida Min imperatori o'z joniga qasd qilgan edi.

Xalq oldida og'ir jinoyatlar sodir etgan yuqori Min amaldorlarini jazolagandan so'ng Li Tszi-Chen yangi davlat apparatini tashkil qilishga kirishadi. Poytaxtda va joylarda tuzilgan hokimiyat organlari o'z strukturasi ko'ra eski tuzum davridagi xukumat muassasalari va idoralarini eslatardi. Bu orada mag'lubiyatga uchragan feodallar qo'l qovushtirib o'tirganlari yo'q. Buyuk Xitoy devori Shanxayguan rayonida sara Min qo'shinlari bilan turgan taniqli harbiy sarkarda U San-guy Pekindagi voqealardan xabar topib, bu vaqtda Xitoyning ichki rayonlariga navbatdagi bostirib kirishga tayyorlanayotgan manjurlarga yordam so'rab murojaat qiladi.

XVI asrda Lyaodundagi Xitoy mulklari chegarasi ortida yashayotgan jangari, urushqoq chjurchjenlarning avlodlari (Janubiy Manjuriyada) minlar xonadonini ta'sirida o'zaro tez-tez urushib turardilar. Biroq ziroatchilikning, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan bu qabilalar o'rtasida ularni siyosiy birlashuvlari uchun shart-sharoitlar yaratgan yetarlicha iqtisodiy yaqin aloqalar o'rnatildi. Bu birlashuvni boshlanishiga g'ayratli manjur sarkardasi Nurxatsi (1559-1626) asos soldi. Xitoyliklar va mo'g'ullar bilan savdo qilish uchun Fushun' shahriga tez-tez kelib turgan yosh Nurxatsi Xitoy adabiyoti va harbiy ishi bilan tanishadi.

Tszyan'chjou okrugida "Manchjou" qabila ittifoqiga bosh bo'lib, Nurxatsi 1583 yili etnik tarkibiga ko'ra turli qabilalar yashayotgan qo'shni hududlarni bosib ola boshlaydi. 1618 yil u o'zini xon, o'z davlatini esa chjurchjenlarga taxassub qilib "Tszin" ("Oltin") deb atadi. Qo'shni hududlarni bo'ysundira borib, Nurxatsi anchayin kuchli armiyani shakllantiradi. U avvaliga 4 manjur bayrog'i (yoki korpus)dan iborat edi. 1615 yili bayroqlar soni 8taga yetkazildi va manjur qo'shinlari "Sakkiz bayroqli" nomini oladi. Min generallarini jiddiy mag'lubiyatga uchratib, Nurxatsi 1621 yili yirik shahar Mukdenni (hozirgi shimoli-sharqiy Xitoyning ma'muriyat markazi Shenyani)ni egallaydi. Bu shahar 1625 yili manjurlar davlatining poytaxti bo'lib qoladi.

Nurxatsining vorisi – uning o'g'li Abaxay manjur – Xitoy ziddiyatlarini yumshatishga intildi. 1636 yili u o'zini imperator deb e'lon qiladi va o'z davlatiga "Sin" ("Toza") degan nom beradi.²⁹ Abaxay davrida manjur davlatining ahvoli yanada mustahkamlandi va uning armiyasi soni ko'paydi. 1644 yilga kelib, manjur armiyasi 200 mingdan ortiq otliq jangchilardan iborat edi.

1636-1638 yillarda manjur qo'shinlari uch marta Shimoliy Xitoy hududiga xujumlar qilib Shandun', Xenan va boshqa provintsiyalarga suqilib kirdilar. Yo'lma-

²⁹ Сидихменов В. "Манжурские правители Китая". М. 1995.

yo'l shahar va qishloqlarni talab, ular chorva, otlarni haydab, o'n minglab Xitoy aholisini avvalo hunarmandlar va yosh ayollarni qullikka olib ketdilar. Manjurlarning harbiy yutuqlari qisman Xitoy generallarining xiyonat yo'liga kirganligi bilan izohlanadi. Ular Minlar hokimiyatining zaifligini tushunib yetib dushman tomonga o'tishga shoshilgan edilar. U San'-guy ham shunday yo'l tutadi va manjur feodallariga Xitoy dehqonlari qo'zg'olonini birgalikdagi sa'yi-harakatlar bilan bostirishni taklif qiladi. 1643 yili regentlik martabasiga o'tgan Dor'gun bu taklifga birdan ishonmadi. Ammo U San'-guyning bir necha marta va astoydil murojaat qilishlari Abaxayni nihoyat u bilan ittifoq bo'lishga undadi.

Tashqi dushmanga qarshi kuchlarni birlashtirishga intilib qo'zg'olonchilar sardori Li Tszi-Chen U San'-guy bilan kelishishga urinib ko'rdi, biroq uning barcha urinishlari zoe ketdi. U San'-guy Buyuk Xitoy devorida manjur qo'shinlariga o'tish yo'lini ochib berdi. Shundan so'ng u o'z jangchilariga sochlarini manjurlarga o'xshab tepa tomonni qirdirib tashlab, orqa tomondagi sochni kokil qilib qoldirishga buyruq beradi.

1644 yilning 27 mayida Shanxayguan ostonalarida Li Tszi-Chen qo'shinlarining manjur va Xitoy feodallarining birlashgan qo'shinlari bilan yirik jangi bo'lib o'tadi.³⁰ Dehqonlarning qattiq turib qarshilik ko'rsatishlari va Li Tszi-Chenning qaxramonligiga qaramay, qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar. O'z jangovar kuchlarini saqlab qolish uchun Li Tszi-Chen g'arbga tomon harakat qilishga qaror qildi.

Qo'zg'olonchilar qo'shinlarining Pekindan chiqib ketishi arafasida Li Tszi-Chen rasman imperator deb e'lon qilinadi.

4 iyun' kuni qo'zg'olonchilar jangsiz Pekinni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. Ikki kundan keyin shaharga manjurlar va U San'-guy qo'shinlari bostirib

³⁰ Губер А. Ким Г. Хейфец Г. "Новая история стран Азии и Африки". М. 1995.

kirdilar. Besh oy o'tib Mukdendan olti yoshli manjur imperatori Fu Lin' (Nurxatsining nabirasi, boshqaruv shiori Shun'chji) olib kelinib Xitoy hukmdori deb e'lon qilinadi.³¹ Shu vaqtdan boshlab kelgindi manjurlarning Sin sulolasi xokimiyati o'rnatilib, uning hukmronligi ikki yarim asrdan oshiq vaqt davom etdi.

1644 yilning oktyabrida Sin qo'shinlari Xitoy zamindorlari qo'shinlari bilan birgalikda Pekin rayonidagi dehqonlarning stixiyali qo'zg'olonini bostirib, yangi xujumni boshladilar. Tunguan' uchun qaqshatqich janglar bir oydan ortiq davom etdi. Qo'zg'olonchilar bu tor tog' darasida Sin qo'shinlarini to'xtatishga urindilar, lekin 1645 yil boshlarida manjurlar va Xitoy feodallari zambaraklar yordamida bu muhim qal'ani egallashga muvaffaq bo'ldilar. Oziq-ovqat yetishmayotganligidan Li Tszi-Chen Sian'ni tashlab chiqishga va janubga chekinishga buyruq beradi. Qo'zg'olonchilar 1645 yil mayida Uchanga yetib keldilar. Uchandan qo'zg'olonchilar mahalliy feodallar bilan janglar olib borgan holda, Tunchen shahri tomon yo'l oladilar. Bu yerda Tszyugunshan' tog'larida (Xubey viloyati janubiy qismi) 1645 yil iyunida Li Tszi-Chen o'ldirildi.

Li Tszi-Chen armiyasi tor-mor etilmasdanoq manjur knyazlari o'z tomonlariga ko'zga ko'ringan yana boshqa bir dehqonlar yetakchisi – Chjan Syan'-chjunni ag'darishga muvaffaqiyatsiz urunadilar. Uning qo'shini Sichuan' provintsiyasining katta qismini nazorat qilardi. Dehqonlar harakatini orqaga ketishidan foydalangan mahalliy feodallar qo'zg'olonchilarga qarshi terrorni kuchaytirdilar. 1646 yil yozida Chjan Syan'-chjun Shensi provintsiyasida manjurlarga qarshi jangga kirishish niyatida o'z qo'shini bilan Chendudan shimolga chiqib boradi. Biroq 1646 yil dekabrda manjurlar unga Fenxuanshan tog'larida yetib olib, natijada jang boshlanib ketadi. Parokanda bo'lib ketgan qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchradilar. Dushman kamon o'qidan yaralangan Chjan Syan'-chjun qo'lga olinadi va qatl etiladi. Chjan

³¹ "Новая история Китая". М. 1992.

Syan'-chjunning mag'lubiyati bilan dehqonlar harakatining asosiy kuchlarining tor-mor bo'lishi yakuniga yetdi.

Shimoliy Xitoyni bosib olgan manjurlar o'zlarining siyosiy va iqtisodiy mavqelarini mustahkamlay boshladilar. Pekinning shimoliy qismidan o'n kun muddat ichida barcha aholi ko'chirib yuborildi. Xitoy poytaxti ulkan harbiy lagerga aylantirildi. Unga sakkiz bayroqli qo'shinlarning asosiy kuchlari joylashtirildi. Manjur knyazlari va harbiylar toifasiga Pekin atrofidagi yer mulklar in'om qilib berildi. Sinlar xonadoni Xitoy feodallarining mamlakatni boshqarishda ishtirok etishlariga monelik qilmadiki, bu esa poytaxtda va viloyatlarda Xitoy amaldorlarining anchagina qismini u tomonga o'tishiga olib keldi. Ayni vaqtda Sin hukumati bir qadar og'ir soliqlarni bekor qilinishi haqida e'lon qildi. Tez orada Sinlar butun Xitoyni bosib olishga kirishdilar.

Manjurlar qo'shinlari Yanchjoudan Nankin tomon yo'naldilar. Min imperatori ularni yaqinlashib kelayotganini bilib, Usiga qochadi (pirovardida u asirga olinib Pekinda qatl etiladi). Garchi Nankinda yetarlicha qo'shin (200-300 minggacha) bo'lishiga qaramay, Xitoy feodallari taslim bo'lishga qaror qiladilar. Nankindan so'ng Sin qo'shinlari jangsiz yirik shaharlar Suchjou va Xanchjouni, Tszyansi viloyatida esa Tszyutszyan va Nan'channi egalladilar. Nankinda manjurlar ommaviy qatl qilishlar, talon-tarojliklar, mahalliy aholi ustidan zo'rvonliklar sodir etdilar, imperator saroyini yondirib yubordilar. O'n minglab ayollar va qizlar Suchjou va Xanchjoudan Pekinga olib ketilib qul qilib sotib yuborildi.

Istilochnilarning vaxshiyona hatti-harakatlari Suntszyan, Isin, Kunshan va boshqa shahar aholisini keskin noroziligini keltirib chiqardi. Shaharliklarning chiqishlari dehqon otryadlari va Tayku ko'li rayonidagi baliqchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Suntszyan aholisi Chen Tszi-Lun boshchiligida (olimlar tabaqasining vatanparvarlik kayfiyatidagi qanoti vakili) Min qo'shinlari qoldiqlari bilan birga, Suchjouni ozod qilishga urunib ko'rdilar. Lekin bu muvaffaqiyatsizlik

bilan tugadi. Chen Tszi Lunning Xanchjouni egallash uchun urinishi ham muvaffaqiyatsiz chiqdi. Suntszyanga yetib kelgan Sin qo'shinlari Sinlarga qarshi harakat ishtirokchilaridan shafqatsizlik bilan o'ch oldilar. Chen Tszi Lun qochib ketishga muvaffaq bo'ladi, biroq pirovardida (1647 yil Suntszyanda yangi qo'zg'olon ko'tarishga urinishdan so'ng) qo'lga olinadi.

Unchalik katta bo'lmagan Kun'shan shaharchasi aholisi bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdi. To'rt kun davomida ular Sin qo'shinlarining xujumlarini mardonavor qaytarib turdilar. Faqat beshinchi kunidagina dushmanlar shaharga bostirib kirdilar. Qonli qirg'inlar natijasida aholidan 40 ming kishi halok bo'ldi.³²

Yirik sakkiz bayroqli qo'shinlarini Nankin, Suchjou va Xanchjou va shuningdek Usun va sharqiy qirg'oq bo'yida joylashgan boshqa joylarda qoldirib, Sin qo'mondonligi o'z qo'shinlarini taslim bo'lgan min sarkardalarining otryadlari bilan birga Markaziy va Janubiy Xitoyning yangi rayonlariga jo'natadi. Yantszining quyi oqimi rayoni va mamlakat janubi sharqida joylashgan viloyatlar iqtisodiy jihatdan ko'proq rivojlangan rayonlar edi. Aynan shu yirik savdo-hunarmandchilik markazlarida manjur bosqinchilariga qarshi xalq ommasining ozodlik urushi yangi kuch bilan alanga olib ketdi.

1945 yili Nankinni egallaganlaridan so'ng manjurlar xitoylik –erkaklarni bosib olingan hududlarda o'n kun muddat ichida itoat belgisi sifatida boshning tepa qismidagi sochini qirdirib, pastki qismini kokil qilib qoldirishi haqida farmon chiqardilar. Kimki, bu farmonga bo'ysunishdan bosh tortsa qatl qildilar. Manjurlar shuningdek, Xitoylik amaldorlarga Min sulolasi davrida kiygan rasmiy kiyimlarni kiyishni ta'qiqladilar. Xitoyliklarning qadimiy odatlariga raxna soluvchi istilochilarning bu talablari ularning milliy tuyg'ularini yerga urar edi. Sochni kokil qilib qo'yishning majburiyligi haqidagi farmon 1645 yili Tszyan'in shahri aholisini

³² “Новая история Китая”. М.1992.

ham noroziligini uyg'otdi. Manjurlar tomonidan yuborilgan shahar xokimini qamoqqa tashlab, aholi faol mudofaaga kirishib ketdi. Bir oydan ortiq Tszyanin aholisi manjurlar qo'shini xujumlarini qaytarib turdilar. Faqat zambaraklar bilan shahar devorlari buzilgandan so'ng, manjurlar Tszyanin ga bostirib kirishga muvaffaq bo'ldilar. Istilochilar shaharda uch kunlik qirg'in uyushtirdilar. Zamondoshlarning shohidlik berishicha, Tszyan'in va uning atrofida 172 ming odam, shu jumladan ayollar, qariyalar va bolalar qirib tashlangan.³³

Chjeztszyan viloyati janubida min qo'shinlari va xalq lashkarlari otryadlari Tsyan'ton daryosini kechib o'tib, Xanchjou yaqinida manjurlarni jiddiy mag'lubiyatga uchratdilar. Biroq ko'zga ko'ringan Xitoy olimi – vatanparvari Xuan Dao-Chjou tashabbusi bilan tashkil qilingan Shimolga yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Xuan Dao-Chjouning o'zi manjurlar tomonidan asirga olinib, 1646 yili Nankinda qatl etildi.

Tszyansining markaziy va janubiy rayonlarida xalq lashkarlari dehqonlar otryadlari bilan (“ajdaxo va yo'lbarslarning yangi armiyasi”) birgalikda Sin qo'shinlariga bir qator zarbalar berib, yirik shahar Tszyan' bilan anchagina hududlarni ozod etishga muvaffaq bo'ldilar. Biroq Sin qo'shinlarining son jihatidan ustunligi natijasida Futszyan' viloyatidan yordamga kelgan uncha katta bo'lmagan Xitoy otryadlari tor-mor etildi va Guanchjouga vatanparvarlar chekinishga majbur bo'ldilar.

1646 yilning kuzida Sin qo'shinlari Futszyan' chegaralariga chiqib keldilar. Xitoy feodali Chjen Chji-lun manjurlarni tog' daryosi orqali bu provintsiyaning ichki rayonlariga o'tkazib yuborishga rozi bo'lgandan so'ng, ular Fuchjouni jangsiz qo'lga kiritdilar. Kuchli flotga ega bo'lgan Chjen Chji-lunga ishonmagan manjurlar uni ayyorlik bilan o'z lagerlariga chaqirib kelib, Pekinga zanjirband holda jo'natdilar va

³³ “Новая история Китая”. М.1992.

u yerda 1662 yili qatl qilib yubordilar.³⁴ Keng xujum operatsiyalari natijasida (Fuchjou va Ganchjou egallagandan so'ng) Sin qo'shinlari 1647 yil 22 yanvarida mamlakatning janubidagi yirik savdo porti Guanchjou (Kanton)ga kirib keldilar.

1645-1646 yillardagi harbiy harakatlar asnosida manjurlar hozirgi Xebey, Shandun, Xenan, Shansi, Shensi va Gansu viloyatlarini o'z ichiga olgan ulkan hududlarni bosib oldilar. Tszyansu, Anxuy, Tszyansi, Xubey, Chjetszyan, Futszyan va qisman Sichuan kabi provintsiyalar Sinlar qo'shinlari nazorati ostiga o'tdi. 1645-1646 yillardagi bosqinchilar bilan kurash, shaharlarning qattiq qarshiligiga qarnamay, vatanparvar kuchlarga ular rahbariyatidagi jiddiy kelishmovchiliklar, shuningdek Xitoy feodallarining sotqinligi tufayli muvaffaqiyat keltirmadi. Guanchjouni egallagandan so'ng Sin qo'shinlari 1647 yil bahorida mamlakatning janubi-g'arbiy rayonlariga keng xujumni avj oldirib yubordilar. Ular Xunan viloyatining asosiy shahri Chanshani egallashga, Guansi provintsiyasining eng yirik shahri – Guylinga yaqinlashishga muvaffaq bo'ldilar. Sin qo'shinlari bu shaharni 3 marta qamal qildilar, lekin uni qo'lga kirita olmadilar. Keyin Tsyuan'chjou ostonalarida 1647 yilning dekabrda mag'lubiyatga uchrab manjurlar chekinishga majbur bo'ldilar. Guansidagi kurashning muvaffaqiyatli kechishida qo'shni Guandun provintsiyasida boshlanib ketgan keng partizanlar harakati ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Tsyuan'chjou ostonalaridagi g'alaba Xitoy jamiyati keng qatlamlarini bosqinchilar bilan kurashga ilxomlantirdi. 1648 yili Guandunda qo'zg'olon ko'tarildi. Shu yili sinlarga qarshi harakat Tszyansi viloyatini qamrab oldi. Bu yerda ilgari manjurlar bilan birgalikda jang qilgan Xitoy qo'shinlari vatanparvar kuchlar tomoniga o'tgan edilar. Yangi hukmdorlarning shafqatsiz milliy va feodal zulmiga qarshi qo'zg'olonlar Shensi, Shansi va Shandun provintsiyalarida ham boshlandi. Shandun provintsiyasining Tsaochjou rayonidagi dehqonlar qo'zg'olonlari bu

³⁴ Сидихменов В. “Манжурские правители Китая”. М. 1993.

chiqishlarning eng yiriklari edi. 1648-1662 yillarda Sin qo'shinlariga qarshi Yuy Tsi boshchiligida dehqon otryadlari qattiq turib jang olib bordilar.

Sinlarga qarshi kurashning keng ko'lam kasb etishi Xitoy qo'shinlari va xalq lashkarlarining otryadlarida yangidan-yangi kuchlarni uyg'otadi. Sobiq qo'zg'olonchilar va min qo'shinlari otryadlari Xe Ten-tszyao komandasi rahbarligi ostida xujumga o'tib, Xunan viloyatining katta qismini ozod qilib, Chanshaga yaqinlashdilar. Van I boshchiligidagi yirik xalq lashkarlari otryadi Simin-shan' rayonida (Chjetszyanning janubi-sharqiy qismi) 1649 yil bahorida Shan'yuy shahrini egalladilar, biroq 1650 yilning oxirida mag'lubiyatga uchradilar. Mahalliy feodallar tomonidan qo'lga olingan Van I.ning o'zi manjurlar tomonidan qatl qilinadi, manjurlar mahalliy aholini qo'rquvga solish uchun uning boshini Ninbo shahar qubbasiga ilib qo'ydilar. Tayxu ko'li rayonida 1662 yilga qadar Sinlar qo'shiniga qarshi "Oq boshlar armiyasi" (uning jangchilari–dehqonlar va baliqchilar boshlarini oq peshonabog' bilan bog'lab olgan edilar) qattiq turib jang olib boradi.

Faqat katta talofatlar evaziga bosqinchilar xalq qo'zg'olonchilarining asosiy o'choqlarini bostirishga va boy berilgan Tszyansi, Guandun, Xunan' va Guansi viloyatlarini qaytadan bosib olishga muvaffaq bo'ldilar. Sakkiz oy mobaynida Guanchjou mudofaasi davom etdi, faqat 1649 yilning oxiridagina shahar bosqinchilar tomonidan egallandi. 1650 yilning oxirida Sin qo'shinlari Guylinni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Hech qanday ko'maksiz qoldirilgan ko'p sonli bo'lmagan Xitoy garnizoni dushmanning ko'p sonli kuchlariga bas kela olmadi. Mudofaaga boshchilik qilgan taniqli shoir Tsyuy Shi-si asirga tushib qoladi va qatl qilinadi.³⁵

1658 yili manjurlar Guychjou viloyatini bosib oldilar, keyingi yili uch tomondan Yun'nanga bostirib kirdilar. Kunmin qulashidan oldin knyaz Guy o'z yaqinlari bilan Birmaga qochib ketgan edi. Sin qo'shinlari qo'mondoni U San'-guy

³⁵ "Новая история Китая". М.1992.

Birma qirolidan knyazni topshirilishiga erishadi va 1662 yili Kunminda min xonadonining so'nggi vakilini qatl ettiradi.

Xitoyning janubiy va janubi-sharqiy provintsiyalarini egallab, Sinlar o'zlari tomoniga o'tgan Xitoy yirik feodallari, harbiy sarkardalarga vaqtinchalik xokimiyatni berishga qaror qiladilar. Tasarrufida ko'p sonli qo'shin bo'lgan U San'-guy Yun'nan va Guychjouning bir qismi boshqaruvini oldi, Guyminni bosib olgan Shan Ke-si Guandun viloyatini va Guansining bir qismini, Gen Tszin-chjun Futszyan' viloyatini oldilar. Vatanparvarlik harakatiga yagona rahbarlikning yo'qligi, qo'zg'olonchilar otryadlari va min qo'shinlari o'rtasidagi tez-tez uchrab turadigan yovlashuvlar, shuningdek sobiq dehqonlar yetakchilari o'rtasidagi jiddiy kelishmovchiliklar Sinlarga xalq qarshilik ko'rsatish kuchlarini bitta-bitta tor-mor keltirishiga va janubi sharqdagi dengiz bo'yi orollaridan tashqari butun Xitoy materigida o'z nazoratlarini o'rnatishlariga imkon berdi. Bu yerda Xitoy vatanparvarlariga Chjen Chji-lunning o'g'li - Chjen Chen-gun (g'arbiy Yevropa adabiyotida Koksing nomi bilan ma'lum) boshchilik qildi.

Manjurlar tomonidan to'satdan otasi qamoqqa olingandan so'ng 24 yoshli Chjen Chen-gun qo'shni Guandun viloyatiga (Nan'ao uezdiga) ko'ngillilarni to'plash uchun jo'naydi. 1647-1648 yillarda Chjen Chen-gun qo'shinlari Futszyan provintsiyasi qirg'oqlaridagi bir qator shaharlarni, shu jumladan Tsyuanchjou va Chjanchjou kabi yirik savdo markazlarini egalladilar. Boy port Syaomin Sinlarga qarshi kurashning asosiy tayanchi bo'lib qoldi. Kattagina flotni qurollantirib Chen-lun Sin qo'shinlariga qarshi harakatlarni faollashtirib yubordi. 1659 yili uning floti Yantsziga kirib Chjentszyanni egallaydi va Nankinga yaqinlashadi. Ayni vaqtda Xitoy qo'shinlari Chjan Xuanyanya qo'mondonligi ostida Usi shahrini egallab Anxuy viloyatida keng xujumni avj oldirib yubordilar. Chen-gunning Nankin ostonalarida paydo bo'lishi Pekinda vaxima uyg'otadi. Qo'rqib ketgan Sin amaldorlari hatto poytaxtni Pekindan Manjuriyaga ko'chirish haqida gapira boshlaydilar. Biroq tez

oradi Chen-gun qo'shinlarining chekinishiga to'g'ri keladi. Yordam ololmagan Chjan – Xuanyan ham mag'lubiyatga uchraydi. Nankin ostonalaridagi mag'lubiyat vatanparvarlarni umidini so'ndirmadi. 1660 yili Chen-gun Syamin ostonalarida o'zidan ikki baravar ustun bo'lgan dushman flotini tor-mor keltirdi.

Bundan buyon kurashning yanada mustahkam tayanchiga ega bo'lish uchun Chen-gun 1661 yili o'z qo'shinlarining bir qismi bilan 1652 yildan gollandlar qo'lida bo'lgan Tayvan oroliga o'tib olishga qaror qiladi. Chen-gun gollandlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratib, 1662 yil fevralida golland gubernatorini taslim bo'lishga majbur qiladi. Maslahatchilar yordamida Chen-gun Tayvanda yangi ma'muriyat tashkil etishga kirishadi. O'zining mis pulini chiqaradi. Orolida harbiy manzilgohlar tashkil qilinadi. Hunarmandchilik, ayniqsa qo'shinlarni qurol-yarog' va oziq-ovqat (masalan, tuz bilan) bilan ta'minlash bilan bog'liq sohalar rivojlandi.

Qirg'oq bo'ylarida tez-tez amalga oshirib turiladigan Chjen-gunning harbiy hatti-harakatlari Sin hukumatida doimiy xavotirlikni uyg'otardi. 1661 yili u dengiz bo'ylaridagi mahalliy aholini materik ichkarisiga ko'chirish va Xitoy savdogarlariga dengizdan boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilishni ta'qiqlash haqida qaror qabul qiladi.

Sin hokimiyatining qatag'onlariga qaramay, dengiz bo'yi viloyatlari aholisi Tayvandagi vatanparvarlarga yordam berishni davom ettirdi. Buning sharofati bilan Chjen Tszin (otasi-Chjen-gunning 1662 yili vafotidan so'ng Tayvan xukmdori bo'lgan) 1663 yili sin qo'shinlari va gollandlarning birlashgan floti xujumini qaytarishga muvaffaq bo'ladi.

Janubiy va janubi-g'arbiy provintsiyalar boshqaruvini olgan uch Xitoy harbiy sarkardalari mustaqilligini tugatish maqsadida Sinlar 1673 yili ularning qo'shinlarini tarqatib yuborish haqida farmon chiqaradi.³⁶ Bunga javoban U San-guy qo'zg'olon

³⁶ Сидихменов В. “Манжурские правители Китая”. 1993

ko'taradi, 1674 yili unga Futszyanning noibi , 1676 yili esa Guandun va Guansi noiblari qo'shiladilar. Antimanjur qo'zg'olonlari Sichuan va Shen'si viloyatlarida joylashgan Xitoy qo'shinlarida ham ko'tarildi. Qulay vaziyatdan foydalanib Chjen Tszin qo'shinlari janubi-sharq qirg'oq bo'ylaridagi Ven'chjou, Tsyuanchjou va Chjen'chjou shaharlarini egalladilar. Sinlar sulolasiga qarshi chaxar mo'g'ullari ham bosh ko'tardilar. Biroq ommaviy vatanparvarlik harakatini avj oldirishga Xitoy harbiy sarkardalarining, shu jumladan U San-guyning monarxiyachilik niyatlari xalaqit berdi. U o'zining Yantszidan janubdagi hududlarida o'z hukumatini tuzishga intilib, qo'shin bilan shimolga, manjurlarga qarshi chiqishdan voz kechadi.

Vatanparvarlik harakati garchi ko'p yoki kam darajada Xitoyning o'nta viloyati aholisini qamrab olgan bo'lsa-da, Sinlar hukumati 1676 yilga kelib frontda ahvolni barqarorlashtirishga erishdi. Yantszining o'rta oqimi rayonida sakkiz bayroqli qo'shinlarning salmoqli kuchlarini to'plagan Sin qo'mondonligi U San-guyning bir necha marta mag'lubiyatga uchratdi. 1678 yil Xenchjouda U San-guy o'zini imperator deb e'lon qiladi, biroq ko'p o'tmay vafot etadi. Uning vafotidan so'ng Sin qo'shinlari 1681 yili Yun'nanga kirib keldilar va Kunminni qaytadan egalladilar. U San-guyning o'g'li o'z joniga qasd qiladi.

Bu vaqtda vatanparvarlik kuchlarining mag'lubiyati avvalo vatanparvarlar otryadlarining tarqoqligi bilan izohlanadi, ularning orasidan barcha kuchlarni birlashtirishga layoqatli biron-bir obro'-e'tiborli rahbar ajralib chiqmadi.

Sinlar hukumati turli va'dalar va yon berishlar bilan Xitoy feodallarining aksariyat qismini o'z tomoniga ag'darishga erishdi. Materikda vatanparvarlik harakati shafqatsiz bostirilgandan so'ng, Chjen Tszinning qo'shini Tayvanga chekinishi bilan oroldagi vaziyat keskin o'zgaradi. Hokimiyatga Sinlar hokimiyati bilan kelishuv yo'lini tutgan feodal guruhi keldiki, natijada 1683 yili manjur qo'shinlari Tayvanga kelib tushdi. Milliy qarshilik ko'rsatishning so'nggi tayanchining qo'lashi bilan Xitoyni manjurlar tomonidan istilo qilinishi nihoyasiga yetdi.

Bosqinchilar bilan keskin qonli kurash qariyb 40 yil davom etdi. Xitoy yirik feodallarining o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida bosqinchilar bilan til birlashtirishgacha bo'lgan sotqinligi natijasida xalq manjurlarga yetarli darajadagi zarbani bera olmadi. Biroq keng xalq ommasining bosqinchilarga va ular bilan birlashgan Xitoy feodallariga qarshi kurashi bu bilan to'xtab qolgani yo'q. Uni kelgindi manjurlar sulolasini ag'darib tashlashni o'z maqsadi qilib qo'ygan turli maxfiy jamiyatlar davom ettirdilar. "Baylyan'tszyao" ("Oq nilufar"), "San'xexuy" ("Triada") va "Gellaoxuy" ("Katta akalar jamiyati")lar ular orasida eng ko'p tanilganlari edi.³⁷

Xulosa qilib aytganda, shafqatsiz milliy zulm va dehqonlar ommasini manjur va Xitoy zamindorlari tomonidan og'ir iqtisodiy jihatdan ekspluatatsiyasi sharoitida maxfiy jamiyatlar Xitoy xalqining ajnabiylar zulmidan ozod qilish uchun kurashning asosiy tashabbuskorlari bo'lib maydonga chiqqan edilar.

³⁷ "Новая история Китая". М.1992.

1.2. Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli (XVII-XIX asr boshlarida).

Xitoyda manjurlar istilosi mamlakatda feodal reaksiyaning g'alaba qilganligidan dalolat berib, u mavjud feodal tartiblar va qoloqlikni mustahkamlagan edi. SHu bilan birga ta'kidlash lozimki, manjur va xitoylik feodallarga Min sulolasini yemirib tashlagan dehqonlar urushi oqibatlarini bilan hisoblashishga to'g'ri keldi.

Dastlabki vaqtda dehqonlar soliq to'lamay, majburiyatlarni o'tamadilar. Bu esa mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq feodal monarxiya hokimiyatini mustahkamlanib borishi barobarida yerlarni yana qaytadan yirik zamindorlar qo'lida to'planish jarayoni avj oldi.

Sinlar davrida yerlarni ikki kategoriyaga: davlat yerlari va xususiy mulk yerlarga ajralishi yanada aniqroq holatda saqlab qolindi. Davlat yerlariga imperator xonadonining, manjur zodagonlari (merosiy asosda beriladigan), "sakkiz bayroqli" qo'shinlar qo'mondonlarining, harbiy manzilgohlar, monastirlar, ibodatxonalar, maktablarning yerlari kirardi. Shuningdek o'rmonlar, tog'lar, yaylovlar ham davlat mulki hisoblanardi.

Imperator xonadoni va manjur zodagonlarining mulklari istilodan so'ng asosan poytaxt viloyati va Shandunda o'tkazilgan musodara qilish natijasida, shuningdek "sakkiz bayroqli" qo'shinlar joylashgan rayonlarda shakllantirildi. Butun Manjuriya Sinlar xonadonining mulki hisoblanib, u yerga xitoyliklarni kirishi mumkin emasdi. Manjuriyaning ulkan hosildor yerlardan iborat hududlari ship-shiydam bo'lib yotardi. Harbiy manzilgoxlarning yerlari imperiya chegarasi yonlarida va qaytadan istilo

qilingan hududlarda joylashgan bo'lib, ularga dehqonlar – harbiy ko'chib keluvchilar ishlov berardilar. Davlat yerlaridan soliq olinmasdi.³⁸

Biroq, u yoki bu shakldagi feodal davlat mulki bo'lgan yerlar Xitoydagi ishlov beriladigan yerlarning kichik bir qismini tashkil etar, binobarin ishlanadigan yerlarning katta, aksariyat qismi xususiy mulk kategoriyasiga kirardi. Yirik yer egalari – pomeschiklar, amaldorlar, yirik savdogarlar, sudxo'rlar, qisman dehqonlar ularning egasi hisoblanardi. Ko'p sonli mayda va o'rta zamindorlarning saqlanib qolishi bilan birga yirik zamindorlar qo'lida yerlarning jamlanishi jarayoni kuzatiladi. Xususiy mulk bo'lgan yerlarni erkin oldi-sotdisi amalga oshirilishi mumkin edi. Shunday qilib, Xitoydagi yer-mulkchiligi Hindiston va Osiyoning boshqa ba'zi mamlakatlaridagidan boshqacharoq edi. Agar Hindistonda yerga feodal mulkchilikning asosiy shakli davlat – feodal mulkchiligi bo'lsa, Xitoyda imperatorning yerga bo'lgan oliy mulkchiligi anchayin nomigagina bo'lib, bu yerda yerga bo'lgan feodal mulkchilikning turli-tuman ko'rinishidagi pomeschik mulkchiligi ustuvor edi.

Sin sulolasining hokimiyati mustahkamlangandan so'ng aholi va dehqon xo'jaliklarini qaytadan ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirildiki, bular asosida soliqlar va feodal majburiyatlar belgilab berildi.

Erdan maxrum bo'lgan yoki bir parchagina yeri bor dehqonlar yirik zamindorlardan yerni asoratli shartlar bilan ijaraga olar, buning evaziga xosilning katta qismini berib, ularga ko'pincha bir qator boshqa feodal majburiyatlarni bajarishga majbur edilar.

Feodal soliq dehqonlar ommasini ekspluatatsiya qilishni asosiy shakli bo'lib, ba'zan bu avloddan-avlodga o'tib boruvchi qarzdorlikni keltirib chiqaruvchi omil bo'lardi. Boshqa xolatlarda dehqon ijaraga olgan bir parcha yer uchun yirik yer

³⁸ “Новая история стран Азии и Африки”. Под ред. А. Родригесс. М. 2004.

egasiga tekinga xizmat qilib berishga majbur edi. Biroq maxsulotlar bilan to'lanadigan soliq ya'ni natural soliq eng ko'p tarqalgan edi. Alohida rayonlarda yirik yer egalari ijara haqini pul shaklida olardilar.

Garchi xitoylik dehqon huquqiy jihatdan krepostnoy dehqon bo'lmasa-da, amalda u yerga biriktirilgan edi. Yerga ishlov berish dehqonlarni davlat majburiyati sanalardi. Bundan tashqari an'ana, urf-odatlar va din dehqonga jonajon qishloqni tark etishni ta'qiqlardi.

Xitoy qishlog'ining turmush tarzi va natural xo'jalikka asoslangan maishiy hayoti avloddan-avlodga deyarli o'zgarmasdan o'tib kelardi. Ziroatchilik hunarmandchilik bilan qo'shib olib borilar, har bir dehqon oilasi odatda, o'zining ip gazlama materiallarga va qisman hunarmandchilik ishlab chiqarishining boshqa buyumlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'zi qondirardi.

O'rta asrlar davrlaridayoq Xitoyda ko'p sonli shaharlar vujudga kelgan edi. Pekin shahrida 3 mln. kishi, viloyatlarning yirik markazlarida yuz minglab aholi yashaganligi ma'lum.³⁹

Hindistonning ko'pchilik shaharlari kabi Xitoy shaharlari ham birinchi navbatda ma'muriy markazlar edi, biroq shu bilan birga ular hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida muhim rol' o'ynardilar. Hatto ma'muriy markaz bo'lmagan shahar tipidagi yirik manzilgohlar rasman shahar sanalmasdilar.

Hunari avloddan-avlodga merosiy o'tib keladigan shahar hunarmandlari tsxlarga birlashardilar. Yirik savdogarlar gil'diyalarga birlashar edilar. Ulardan ba'zilar yirik savdo kompaniyalari hisoblanardilar.

Xitoy shaharlarida sudxo'rlik sarmoyasi katta rol' o'ynardi. Ularda banklar, lombardlar, pul almashtiruvchi do'konlar bo'lib, pul qarzga katta foiz evaziga berilardi. Garchi manjur hukmronligini o'rnatilishi Xitoyda feodal unsurlar

³⁹ Губер А.А. Ким Г.Ф. Хейфец А.Н. "Новая история стран Азии и Африки". М. 1992.

pozitsiyasini va feodal reaksiyani kuchaytirgan bo'lsa-da, shunga qaramay sinlar davrida tovar ishlab chiqarishi o'sib bordi, ichki bozor kengaydi, hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlandi, manufakturalarning o'sishi kuzatildi.⁴⁰

Nankin, Xanchjou, Suchjou va boshqa joylarda ipak, parcha, atlas, chesuchu, baxmal tayyorlaydigan yirik imperator manufakturalari ishlab turardi. Tszzyansi, Futszyan, Chjetszyan viloyatlaridagi yirik manufakturalarda chinni buyumlar ishlab chiqarish kengaytirildi. Ularda anchayin mehnat taqsimoti yo'lga qo'yilgandi. Butun dunyoga shuhrat qozongan chinni ishlab chiqarishi anchagina keng ko'lam kasb etgan bo'lib, faqatgina Tszindechjenda (Tszzyansi viloyati) feodal davlat yoki xususiy tadbirkorlarga tegishli bo'lgan chinni pishiradigan 3 mingta xumdon ishlatilgan.⁴¹

Feodal Xitoyda anchagina keng yoyilgan tovar ishlab chiqarish va savdo feodal iqtisodiyotning tarkibi qismi bo'lib kelayotgan edi. Sin imperiyasining siyosiy tizimi feodal ishlab chiqarish munosabatlarini saqlab qolish va himoya qilishga qaratilgan edi. Feodal Xitoy jamiyatining tabaqalarga bo'linishi ham mana shu maqsadga xizmat qilardi.

Imtiyozlari avloddan-avlodga o'tuvchi oliy tabaqaga manjurlar: imperatorning qarindoshlari va ularning avlodlari – sariq rangdagi yirik imperator kamarini taqish imtiyoziga ega bo'lgan “Sariq kamarlilar”, birinchi manjur imperatorlarining yaqin kishilarini avlodlari kirardilar.

Avloddan-avlodga o'tmaydigan imtiyozli tabaqaga shen'shi – “olimlar” tabaqasi kirardi. Shen'shi bo'lish uchun imtihon topshirish va ilmiy daraja olish zarur edi. Imtihon topshirish huquqiga nafaqat yirik zamindorlar balki dehqonlar, hunarmandlar ham ega bo'lsalar-da, ammo imtihonlarga tayyorlanish uchun ko'p yillar, o'qituvchilarga to'lash va shu kabi xarajatlar uchun anchagina pul talab

⁴⁰ Сидихменов В. “Манжурские провители Китая”. М. 1993.

⁴¹ “Новая история Китая”. М.1992.

qilinardi. Ilmiy daraja uchun imtihon topshirish tartibini o'zi favqulodda murakkab bo'lib, imtihon topshiruvchilarning uzog'i bilan 8-10 foizi, shunda ham asosan boy xonadondan bo'lganlar topshira olardi. Tabiiyki, shen'shi unvonini olish amalda yirik zamindorlar, boy savdogarlar va sudxo'rlarning imtiyozi bo'lib qoladi. Ko'p hollarda yirik zamindorlar imtihon topshirmasdan ham shen'shi unvonini sotib olardilar. Shen'shilar orasidan shahar boshqaruvchilari, sud'yalar va boshqa yuqori amaldorlar tayinlanardi. Yevropaliklar ularni mandarinlar deb atardilar (portugalcha "mandar" so'zidan - boshqarmoq).⁴² Shen'shilarning katta qismi davlat xizmatida bo'lmasa-da, ammo hukmron tabaqaning ta'sirchan qatlami edi.

Tabaqaviy ierarxik zinapoyaning qo'yi qatlamini dehqonlar, hunarmandlar va savdo ahli tashkil qilardi. Tabaqaviy zinapoyaning eng qo'yi qismida aktyorlar, devonxona quyi xizmatchilari, qullar turardilar. Ular boshqa tabaqalar vakillari bilan nikoh munosabatlariga kirisha olmas edilar.

Sinlar monarxiyasi har qanday choralar bilan feodal davlat tizimini, ko'pchilik shahar va qishloqlarni bo'ysundirish va ekspluatatsiya qilish quroli sifatida mustahkamlaydi. Davlat tepasida cheklanmagan monarx-bog'dixon turar edi. Harbiy kengash bog'dixon qoshida oliy hokimiyatga ega edi, u manjur zodagonlardan tashkil topgan edi. Vazirlar maxkamasi vazifasini "lyubu" ("olti palata") soliq, marosimlar, harbiy ish, jinoiy, ijtimoiy jamoat ishlari bo'yicha amaldorlar kengashi amalga oshirardi.

Xitoyni o'zi provintsiyalarga bo'linar, ular esa o'z navbatida viloyatlarga (fu), okruglarga (chjou), uездlar (syan')ga bo'linardi.⁴³ Provintsiya tepasida bog'dixon tomonidan tayinlangan harbiy va fuqaro gubernatorlari turardilar. Ular ustidan esa bir necha provintsiyalarning harbiy va fuqaro hokimiyatiga boshchilik qiladigan noib

⁴² Губер А.А. Ким Г.Ф. Хейфец А.Н. "Новая история стран Азии и Африки". М. 1995.

⁴³ Сидихменов В. "Манжурские провители Китая". М. 1993.

turardi. Joylarda ham yuqori lavozimlarni aksari hollarda manjur zodagonlari vakillari egallardilar.

Xalq ommasi qarshiligini bostirishda armiya katta rol' o'ynardi. Avvaliga u faqat manjur askarlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, keyinchalik "sakkiz bayroqli" armiya xizmatiga mo'g'ullar, keyin esa xitoyliklar jalb qilindi. Bunda "sakkiz bayroqli" qo'shinlarda xizmat qilganlar milliy mansubligidan qat'iy nazar imtiyozli tabaqa vakillari sifatida yuqori ish haqi bilan siylanganlar.

Keyinchalik borib, "yashil bayroqli" armiya xitoyliklardan shakllantiriladi. Uning askarlari kam maosh olar, yomon qurollantirilgan edi. Asta-sekin manjur zodagonlari imperiya feodal ierarxiyasiga boshchilik qiluvchi Xitoyning hukmron tabaqasining tarkibiy qismiga aylanib bordi.

Manjur istilochilari xitoyliklardan madaniyatni, ko'plab urf-odatlar, davlat muassasalari strukturalarini, dinni va mafkuraviy daktrinalarni o'zlashtirib oldilar, manjur qabilalari va ularning knyazlari ilgari e'tiqod qilib kelgan shamanizmdan voz kechdilar. Biroq bunda manjurlar barcha usullar bilan o'zlarining Xitoy jamiyati va davlatidagi imtiyozli holatlarini mustahkamlab bordilar. Aralash nikohlar ta'qiqlangan edi.⁴⁴ Manjur tili rasman Xitoy tili bilan birgalikda imperiyaning davlat tili deb e'lon qilindi.⁴⁵

Bunday vaziyat manjur zodagonlari bilan Xitoy zamindorlarining ba'zi guruhlari o'rtasida ziddiyatni tug'dirmasligi mumkin emasdi, Xitoy xalqining ko'pchiligi uchun esa, Sin imperatorlari va manjur zodagonlarining hukmronligi feodal zulm va ajnabiy sulolaning jabri sifatida qabul qilinardi. Ajablanarli emaski, xatto xalq ommasining Xitoy yirik zamindorlariga qarshi chiqishlari ham odatda manjurlarga qarshi shiorlar ostida rivojlanardi.

⁴⁴ "Новая история Китая". М. 1972.

⁴⁵ А.Родригесс тахрири остида. "Новая история стран Азии и Африки". М. 2004.

Shimolda va g'arbda mo'g'ullar hamda Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari manjur-xitoy agressiyasiga nishon bo'ldilar. 1636 yildayoq manjurlar tomonidan bo'ysundirilgan Janubiy yoki ichki Mug'ulistondan tashqari, imperator Kansi (1662-1722) davrida XVII asr oxirida Xalxa (Shimoliy Mug'uliston) bosib olindi. Shundan so'ng g'arbiy mo'g'ul (oyratlar)ni bo'ysundirish uchun uzoqqa cho'zilgan kurash avj oldiriladi. XVIII asr o'rtalarida Oyrat (Jung'or) xonligi imperator Tsyan'lun (1736-1795) qo'shinlari tomonidan egallab olinadi. Tez orada uyg'urlar davlati Qashqar (Sharqiy Turkistonda, Tyanshan janubida joylashgan) istilo qilinib, anneksiya etiladi.

Shu bilan deyarli bir davrda Tibetga qarshi manjur-xitoy agressiyasi amalga oshiriladi. 1720 yili uning sharqiy qismi Sin qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi. Bu esa tibetliklar qo'zg'olonini keltirib chiqardi. Tibetni bo'ysundirish uchun manjur istilochilariga uzoq harbiy xarakatlar olib borishga to'g'ri keldi va pirovardida Tibet imperiya tarkibiga majburan qo'shib olindi.

XVIII asrda Xitoy bog'dixonlari bir necha marta V'etnam va Birmaga istilochilik yurishlari uyushtirdilar.

Dastlabki davrlarda Sinlar hukumati g'arbiy Yevropa missionerlariga, Xitoy xalqining qarshiligini bostirishda yevropaliklarni qo'llab-quvvatlashidan foydalanishni mo'ljallab ijobiy munosabatda bo'ldi. Ular chet el kemalariga Xitoy portlari Guanchjou (Kanton), Syamin (Amay), Ninbo, Dinxay portlariga kirish va savdo qilishga ruxsat beradilar.

XVII asrning ikkinchi yarmida Pekinga golland, portugal, frantsuz va ingliz savdogarlari keldilar. Xitoyga shu vaqtda ko'plab katolik missionerlari kelib, ular bu yerda xristianlikni targ'ib qilishni avj oldirdilar. Kansi imperatorligi davrida (1662-1722) ular saroyda katta ta'sirga ega bo'ldilar.⁴⁶ Missionerlardan ba'zilari xatto

⁴⁶ Сидихменов В. "Манжурские провители Китая". М. 1993.

imperatorning maslahatchilari bo'lib olishgan, ularga diplomatik topshiriqlar ham berilardi.

Chet ellik missionerlarning faoliyati xalqda tobora o'sib boruvchi norozilikni keltirib chiqardi. Boshqa tomondan xukmron doiralarda uzoq Yevropadan kirib kelishi mumkin bo'lgan yangi yot narsalardan qo'rquv paydo bo'ldi. 1724 yili yangi bog'dixon Yunchjen xristian cherkovlarini yopish va ko'pchilik missionerlarni badarg'a qilish haqida buyruq beradi. 1757 yili imperator Tsyanlun davrida Guanchjoudan tashqari yevropaliklar bilan Xitoyning barcha portlarida savdo-sotiqni ta'qiqlovchi farmon chiqadi.

Shu vaqtdan boshlab Sin hukumati Xitoyni G'arbdan ajratib qo'yish siyosatini o'tkaza boshlaydi. Yevropaliklarga Xitoyga tashrif buyurish ta'qiqlanadi. Ularning kemalari faqat Guanchjouga kiritilar, bu yerda ular faqat birgina savdo kompaniyasi "Gunxan" (Evropa adabiyotida "Koxong") hokimiyati nazorati ostidagina savdo qila olardilar.

Sin hukmdorlari mamlakatni chetdan ajratib qo'yish ular hukmronligini mustahkamlaydi deb hisoblardilar. Xitoy feodallarida Yevropa bilan savdo aloqalarini o'rnatishdan bevosita iqtisodiy manfaatdorlik yo'q edi. Xitoy hukmdorlari Yevropa va birmuncha Xitoyga yaqin bo'lgan davlatlarni rivojlanish darajasi to'g'risida yetarli tasavvurga ega emasdilar. Ular Xitoy to'g'risida atrofni qoloq "varvar" mamlakatlar o'rab turadigan dunyoning markazidagi imperiya haqidagi an'anaviy kontseptsiyasini zo'r berib targ'ib etadilar.

O'z-o'zini ajratib qo'yish siyosati qandaydir darajada Xitoyga chet el mustamlakachilarini suqilib kirishini ortga surdi. Biroq feodal tartiblarni konservatsiyalash va Sinlarning hukmronligini saqlab qolish uning asosiy natijasi edi. Tashqi savdoni cheklab qo'yib sinlar ilgari tashqi bozorga mahsulot chiqaradigan hunarmandchilik ishlab chiqarishi va manufakturalarga zarba berdilar.

XVIII asr boshlarida avvalo XVII asrdagi ulug' dehqonlar harakati natijasida feodal zulmning bo'shashi oqibatida Xitoyda yuzaga kelgan muayyan darajadagi iqtisodiy o'sish bardavom bo'lishi mumkin emasdi. Feodal tartiblar manjur istilochilarining hukmronligi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga xalal berib, Xitoy iqtisodini turg'unlik va tushkunlikka duchor qilardi.

Bunday sharoitda manjurlar sulolasini ag'darib tashlashni o'zining maqsadi qilib qo'ygan diniy tashkilotlar va jamiyatlar katta ta'sirga ega bo'lib bordilar. "Triada" jamiyati ular ichida eng yirigi va ta'sirga ega bo'lgani bo'lib, u dengiz bo'yi provintsiyalarida, "Katta og'alar jamiyati" esa Yantszi vodiysida faoliyat ko'rsatardi.⁴⁷

Bu jamiyatlar odatda diniy-mistik xarakterga ega bo'lib, uning a'zolari alohida udumlarni bajarishlari zarur edi. Bu yerda qattiq intizom va niqoblanishga amal qilinardi. Maxfiy jamiyatlarning ijtimoiy tarkibi haddan tashqari turli-tuman bo'lib, ularga dehqonlar, hunarmandlar, shahar kambag'allari, qashshoqlar, daydi kishilar kirardilar. Biroq jamiyatlar rahbarligida katta savdogarlar, yirik zamindorlar, amaldorlar ko'zga ko'ringan rol o'ynar, ko'pincha Xitoy yirik zamindorlari maxfiy jamiyatlarda ishtirokdan dehqonlar ustidan o'z hokimiyatlarini kuchaytirish uchun foydalanar, ular turli yo'llar bilan jamiyatlar a'zolarining feodal tartiblarga qarshi intilishlarini cheklashga intilardilar.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Xitoy dehqonlar ommasining va mazlum xalqlarning bir qator feodal tartiblarga qarshi qo'zg'olonlari sodir bo'ladi.

1786 yili Tayvanda "Triada" maxfiy jamiyati boshchiligida yirik qo'zg'olon boshlandi.⁴⁸ 1796 yili bir necha yil davom etgan va Shimoliy Xitoyning bir qator provintsiyalarini qamrab olgan "Oq nilufar" boshchiligidagi yanada yirikroq

⁴⁷ "Новая история Китая". М. 1992.

⁴⁸ Atadjanov Sh. Zokirov Sh. Musaev U. "Osiyo va Afrika mamlakatlari yangi tarixi". T. TDPU. 2011

qo'zg'olon avj olib ketdi. 1802 yildagina bog'dixon armiyasi xalq chiqishlarini bostirishga muvaffaq bo'ldi. Shu yillarda Janubi-G'arbiy Xitoy xalqlarining bir necha yirik qo'zg'olonlari sodir bo'ladi.

Shunday qilib, XIX asr boshlariga kelganda feodal Xitoy chuqur inqirozni boshida kechirmoqda edi. Xalq ommasining noroziliklari muttasil o'sib borayotgandi. Dehqonlar ommasining feodal tartiblarga qarshi kurashi sinlar rejimining asoslariga tahdid solayotgan edi. Biroq Yevropa mustamlakachilarini kelishi Xitoy jamiyatining tabiiy rivojlanishini izdan chiqardi.

II – bob. Sin imperiyasining g'arb davlatlari yarim mustamlakasiga aylantirilishi.

2.1. Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi.

Frantsiyada sodir bo'lgan 1789-1794 yillardagi inqilobdan so'ng G'arbiy Yevropa va Amerikada sarmoyadorlik munosabatlari juda tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Iqtisodiy jihatdan ancha ilgari ketgan Angliya kapitalizmi yangi bozorlar axtara boshladi. Undan tashqari Angliya Hindistonga qo'shni bo'lgan Xitoyni mustaqil bo'lib qolishini istamas edi. Ma'lumki, bu davrda Xitoy faqat Kanton orqali chet el davlatlari bilan savdo-sotiq olib borar edi. Ingliz savdogarlari savdo uchun ko'proq port shaharlarini “ochishni” o'z hukumatlaridan talab qildilar. Nihoyat, Angliya 1792 yili yirik mustamlakachi arbob, lord Makkartneyni Xitoyga yuboradi.⁴⁹ U 1793 yili 5 avgustda Xitoyga yetib kelib, Xitoy davlati oldiga quyidagi talablarni qo'ydi: 1) Angliya bilan Xitoy o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish; 2) Angliya bilan savdo qilish uchun Kantondan tashqari Ninbo, Tyantszin portlarini ochish; 3) “Gunxon” savdo kompaniyasi monopoliyasini bekor qilish; 4) Xitoyda inglizlarning yashashi va bemalol yurishi uchun erkinlik berish.

Biroq Xitoy imperatori bu talablarni qabul qilmadi. Makkartney missiyasi to'la muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shunday bo'lsa ham inglizlar qo'l qovushtirib jim o'tirmadilar. Angliya juda yaxshi bilardiki, Xitoy bu davrda qoloq feodal davlat bo'lib, og'ir inqirozni boshdan kechirmoqda edi. Bu vaqtda Angliya Xitoydan choy, shoyi, chinni va boshqa narsalar olib, ularning haqini kumush hisobida to'lar edi.

⁴⁹ Atadjanov Sh. Zokirov Sh. Musaev U. “Osiyo va Afrika mamlakatlarining yangi tarixi

(1640-1914 yillar)”. T. TDPU. 2011

Inglizlarning bu yerga olib kelgan gazlamalari esa mamlakat bozorida arzimagan o'rinni egallardi.

Ingliz sarmoyadorlari bu vaqtda Frantsiya bilan jahonda gegemonlik uchun janglar olib borib, Hindiston xalqlariga qarshi istilochilik mustamlakachilik urushlarni amalga oshirar ekanlar, Xitoyga qarshi kuch ishlatishdan tiyilishdi. Biroq ular mamlakatni "ochish"ga zo'r berib harakatni davom ettirdilar. XIX asr boshlarida Angliya uch marta bir vaqtlar portugallar tomonidan egallab olingan Xitoy porti Aomin' (Makao)ni tortib olishga urunib ko'rdi. 1816 yili Xitoyga Makkartney maqsadlari izidan ingliz hukumatining yangi favqulodda vakili Amxeret yuborildi. Lekin uning missiyasi ham muvaffaqiyatsiz chiqadi.

Inglizlar tomonidan Bengaliya egallaganidan so'ng Ost-Ind kompaniyasi ingliz hukumatidan afyun savdosiga monopol huquqni qo'lga kiritib Xitoyga afyun keltira boshladi. Bengal dehqonlari majburiy tartibda yetishtirgan afyun savdosi juda serdaromad ish bo'lib chiqdi. Xitoyliklarga afyun sotish Hindistondagi ingliz ma'murlariga ularning butun daromadlarini yettidan bir qismini berardi.⁵⁰ Xitoyga afyun kiritish nafaqat Xitoy tovarlari uchun qilingan harajatlarni qoplabgina qolmay, Xitoydagi kumush zahiralarini yemira boshladi.

1800-1838 yillarda Xitoyga olib kelinadigan afyunning yillik miqdori 20 marta ya'ni 2 mingdan 40 ming yashikkacha ko'payib bordi.⁵¹ Afyun iste'mol qilish favqulodda keng ko'lam kasb eta boshlaydi. Hammaga ma'lumki, afyun-xavfli zaxar bo'lib, u odamni aqli xushidan mosuvo etib, xotirasini yo'qotib, kuchdan qoldirib, asta-sekin pirovardida o'ldiradi.

Ajablanarli emaski, Xitoyning hukmron doiralaridagi ba'zi bir uzoqni ko'ruvchi vakillari afyun bilan savdo qilinishiga qarshilik ko'rsata boshlaydilar.

⁵⁰ "Новая история Китая". М. 1992.

⁵¹ "Новая история Китая". М. 1992.

Hatto Sin hukumati bir necha marta uni keltirishni ta'qiqlash to'g'risida farmonlar chiqaradi. Biroq ingliz boy savdogarlari amaldorlar va manjur zodagonlarini sotib olardilar.

Chet ellik boy-savdogar-kontrabandistlar tomonidan beriladigan poraxo'rlikdan Guanchjou bojxona amaldorlaridan tortib "Osmon o'g'li"ning o'zigacha feodal Xitoy davlat apparatini barcha zvenolari u yoki bu darajada manfaatdor bo'lib qoladilar. Natijada Xitoydan kumushning chiqib ketishi keskin ko'payib bordi. 1833 yildan, ayniqsa 1840 yildan Xitoydan Hindistonga kumushni olib chiqib ketish shunday ko'lam kasb etdiki, endilikda bu holat Samoviy imperiyani holdan toydirish darajasida xavf solayotgan edi.

Biroq ingliz boy savdogarlari baribir mavjud holatdan norozi edilarki, ular o'z hokimiyatlariga qilgan iltimosnomalarida afyun savdosini to'liq oshkoralashtirish va Xitoy portlarini chet el savdosi uchun ochilishiga erishish uchun Xitoyga nisbatan kuch ishlatishni talab qiladilar.

XIX asrning 30-yillari ikkinchi yarmida kumushni chetga chiqib ketishi natijasida Sinlar hukumatining moliyaviy ahvoli keskin yomonlashadi. Afyun kontrabandasining halokatli oqibatlari Xitoy jamiyatining turli qatlamlarida kuchli norozilikni uyg'otadi.

Imperator Daoguan 1836 yili afyun kontrabandasi bilan kurashni kuchaytirish haqida edikt chiqardi. Biroq hukmron lagerda ko'pchilik bundan manfaatdor emasdi. Faqatgina oliy amaldorlarning Lin' Tsze-syuy boshchiligidagi kichik bir guruhgina afyun savdosi va uni iste'mol qilishni to'liq ta'qiqlash yo'lini tutadilar.

Lin' Tsze-syuy feodal ziyolilarining ilg'or qismiga mansub bo'lib, 1830 yili u islohotchilik qarashlari targ'ib etiladigan shiorlar to'garagiga a'zo bo'ladi. Bu to'garak a'zolari afyunni ta'qiqlash tashabbuskorlari bo'lib maydonga chiqadilar. 1838 yili Lin' Tsze-syuy Xunan' va Xubey provintsiyalariga noib etib tayinlanadi, u

bu yerda afyunni qo'lga kiritish va tortib olish bo'yicha amaliy choralarni ko'radi.⁵² Aholining qo'llab-quvvatlashi sharofati bilan bu ikki provintsiyada afyunni ta'qiqlab qo'yish samarali va muvaffaqiyatli bo'lib chiqadi. Tez orada Lin' Tsze-syuy afyun kontrabandasining markazi sanalmish Guandun provintsiyasiga alohida vakolatli amaldor etib tayinlandi. 1839 yil bahorida Guanchjouga yetib kelgandan so'ng u chet el boy savdogarlaridan afyunning barcha zahiralarni topshirishni talab qiladi. Ingliz missiyasining boshlig'i Elliot bu talabni bajarishdan bosh tortadi. Shundan so'ng Lin' Tsze-syuy chet ellik savdogarlarning faktoriyalarini o'rab olishga buyruq beradi. Shundan keyin ingliz boy savdogarlari kontrabanda yo'li bilan olib kelingan 20 ming yashik afyunni Xitoy ma'muriyatiga topshirishga majbur bo'ldilar va bu zehri qotilning barchasi okeanga cho'ktirildi.

Lin' Tsze-syuyning qat'iy hatti-harakatlari Guandun aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Boshqa provintsiyalarda ham afyunni ta'qiqlash harakati kuchaydi. Angliya Guandundagi voqealardan Xitoyga qarshi urush qo'zg'ash uchun foydalandi. 1839 yilning noyabrda ingliz harbiy kemalari Xitoyning kichik yelkanli kemalariga xujum uyushtirdilar. 6 dekabrda Xitoy hukumati Angliya bilan har qanday savdoni ta'qiqlab qo'ydi. Angliya bunga Guanchjouni qamal qilish bilan javob berdi.

Hukmron tabaqaning boshqa vakillaridan farqli o'laroq, Lin' Tsze-syuy chet ellik bosqinchilarga jiddiy qarshilik ko'rsatish zarurligini tushunardi. Baliqchilar, lotsmonlar, marverid yig'uvchilar, hunarmandlar, dehqonlardan u bosqinchilarga qarshi quruqlikda va dengizda harbiy harakatlar uchun xalq lashkarlari otryadlarini tuzadi. Ingliz dengizchilari bilan 1839 yil kuzidagi bir necha to'qnashuvlarda Guandun shahri aholisi bosqinchilarga muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatish mumkinligini ko'rsatdi.⁵³ Biroq hukmron to'da Lin' Tsze-syuyi qo'llab-

⁵² Губер А.А. Ким Г.Ф. Хейфец А.Н. "Новая история стран Азии и Африки". М. 1992.

⁵³ Юрьев М.Ф. тахрири остида "История стран Азии и Африки в новое время". I-часть. М. 1986.

quvvatlamadi. Imperator uning ko'pgina yo'l-yo'riq, ko'rsatmalarini bekor qildi. Hukmron lagerdagi taslimchilar inglizlar bilan til biriktirishga intildilar.

Ingliz gazetolari Xitoy ma'murlarining kontrabanda bilan kurash bo'yicha qonuniy chora-tadbirlarini ingliz fuqarolari ustidan zo'ravonlik deb e'lon qildilar va "xitoyliklarni qattiq jazolash"ga chaqirdilar. Shundan so'ng ingliz hukumati Xitoy oldiga qat'iy talablarni qo'yadi: yo'q qilingan afyunning qiymatini kompensatsiya qilish; ingliz fuqarolarini haqorat qilganlik uchun kechirim so'rash; kelajakda inglizlarga Xitoyda "munosib hurmat" bilan munosabatda bo'linishiga kafolat berish; Janubiy Xitoy qirg'oqlarida Angliyaga qaysidir bir orolni abadiy mulk qilib berish. Bu talablarning xarakteri ingliz hukumati nafaqat Xitoy xalqini afyun bilan hech qanday to'sqinliksiz zaxarlash "huquqiga" erishishga, balki Xitoyni mustamlaka asoratiga solish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga intilganligini ko'rsatadi.

Ingliz hukumati bu talablarni urushsiz hayotga tadbiq etish mumkin emasligini tushunardi. 1840 yil iyunida Xitoy suvlariga bir necha o'n kemalardan iborat britan harbiy eskadrasi yetib keldi. Kemalarning bir qismi Guanchjouni qamal qildi, qolganlari Yantszi tomon yo'l oladi. Iyul' boshlarida ingliz desanti Shanxaydan uzoq bo'lmagan Chjou-shan' orolini egalladi.

Shu tariqa urush e'lon qilmay turib, ingliz mustamlakachilari birinchi ingliz-xitoy ("afyun") urushini boshladilar. Angliyani urushda qatnashmagan Frantsiya va AQSH qo'llab-quvvatladi. Xitoy suvlariga Amerika eskadrasi jo'natildi. Sobiq AQSH prezidenti Jon Adams "Angliya tomonidan e'lon qilingan urush, adolatli urush" deb xitob qiladi.

Xitoy saroyida inglizlar oldida taslim bo'lish tarafdorlari baland kela boshlaydilar. Poytaxt provintsiyasi – Chjili noibi Tsi Shan' ochiqdan-ochiq taslim bo'lish haqida muzokaralar boshlashni talab qiladi. 1840 yil noyabrda imperator afyunni ta'qiqlashni bekor qilish to'g'risida edikt chiqaradi. Inglizlarga qarshilik

ko'rsatish tarafdorlaridan o'ch olish boshlanib ketadi.⁵⁴ Lin' Tsze-syuy va boshqa vatanparvarlar o'z lavozimlaridan olib tashlanadi. Guandun va Guansi provintsiyalariga noib etib tayinlangan Tsi Shan' Guandun dengiz qismlari komandiri Chen' Lyan'-shenni ingliz bosqinchilariga qarshi o't ochishga buyruq berganligi uchun qatl qilishni talab qiladi. Aholining noroziligi natijasida bu talab bajarilmay qolgan bo'lsa-da, ammo bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatgan Guandun dengiz va piyoda qismlari tarqatib yuborildi. Tsi Shan' ingliz qo'mondonligi bilan muzokaralar boshlab, ularda inglizlarning talablarini qabul qilishga amalda rozi bo'ladi.

Taslimchilik siyosati Xitoy jamiyatining turli qatlamlarida, ayniqsa Guandunda va ingliz agressiyasi ob'ekti bo'lgan boshqa dengiz bo'yi provintsiyalarida norozilikni uyg'otdi. Ikkinchi tomondan hukumat inglizlarga musodara etilgan afyuni tovonini to'lashga mablag'i yo'q edi. Bundan tashqari imperator ochiqdan-ochiq taslim bo'lishlik sulolaning obro'-e'tiborini jiddiy izdan chiqarishidan qo'rqardi. O'z navbatida inglizlar Xitoyga yangi asoratli talablarni tiqishtirishga intilayotgandilar. 1841 yilning fevralida ingliz qo'shinlari Guanchjou rayonida xujum boshlab fortlardan birini egalladilar.⁵⁵

Bunday sharoitda Sin hukumati Tsi Shanni qo'llab-quvvatlay olmasdi va to'la taslim bo'lish yo'liga kira olmasdi. U Angliyaga qarshi rasman urush e'lon qiladi. Bog'dixon Tsi Shanni sudga beradi, uning mol-mulklari musodara qilinadi, uning xotinlari va joriyalari kim oshdi savdosida sotib yuborildi.

Tez orada ingliz hukumati Xitoyga yangi kuchlarni yuboradi. Ingliz qo'shinlari Guanchjouning atrof rayonlarini va Xitoyning janubi-sharqidagi qirg'oq bo'yi bir qancha portlarini bosib oladi.

⁵⁴ "Новая история Китая". М. 1992.

⁵⁵ Юрьев М.Ф. тахрири остида "История стран Азии и Африки в новое время". I-часть. М. 1986.

Xitoy o'z mustaqilligi va suverenitetini saqlab qolish uchun adolatli urush olib borayotgan edi. Uni Xitoy xalqining chet el mustamlakachilariga qarshi ozodlik kurashining boshlanishi sifatida baholamoq lozim.

Ingliz qo'mondonligi bilan Tsi Shan' muzokaralar olib borgan vaqtlardayoq, qirg'oq bo'yi rayonlarida partizan otryadlari faoliyat ko'rsata boshlagan edilar, ular oziq-ovqat zahiralari to'ldirib olish uchun kemalardan tushgan inglizlarning uncha katta bo'lmagan guruhlariga xujum qilardilar. Partizan tuzilmalari o'zlarini "pin'intuan"lar (inglizlarni tinchitish otryadlari) deb atardilar. Pin'intuanlar 1841 yili 30 mayda 800 nafar ingliz askar va dengizchilarini o'rab olish bilan yakunlangan eng yirik operatsiyani o'tkazdilar. Faqatgina Guandun provintsiyasi noibining aralashuvi, o'rab olingan inglizlarni qo'yib yuborish haqidagi buyrug'igina, ingliz otryadini yo'q qilinishdan qutqarib qoldi. Inglizlar o'z kemalariga chekinadilar.

Guandunning dengiz bo'yi rayonlarini qamrab olgan vatanparvarlik ko'tarilishi urushning borishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata olmadi. 1842 yil iyunida inglizlar Shanxayni egalladilar va Yantszi daryosi bo'ylab yuqoriga xujumni davom ettirdilar. Chjen'tszyan shahrida ayovsiz janglar avj olib ketdi, bu yerda bir yarim ming kishilik garnizon so'nggi tomchi qoni qolguncha jang qiladi.

Chjen'tszyan Buyuk kanal va Yantszi tutashgan joyda joylashgan edi. 21 iyunda uni egallab inglizlar Janubiy Xitoyni Shimol bilan bog'lovchi muhim kommunikatsiyani kesib qo'yib, Nankinga xavf soldilar. Tez orada Xitoy hukumati taslim bo'ldi.⁵⁶

Xitoyning urushdagi mag'lubiyatini asosiy sababi uning kapitalistik Angliya bilan taqqoslaganda harbiy va iqtisodiy jihatdan zaifligida edi. O'sha vaqtda Xitoy armiyalari yarador va o'lganlar bo'lib 20 ming talofot bergani holda, inglizlarning

⁵⁶ В.Г.Сироткина тахрири остида. "Хрестоматия по новой истории.1640-1870". М.1990.

talofoti bor yo'g'i 520 kishini tashkil etgan edi. Xitoyning feodal hukmdorlari butun mamlakat miqyosida yagona mudofaani tashkil eta olmadilar.

1842 yil 29 avgustida Nankin ostonalarida ingliz harbiy kemasi "Karnovillis" bortida "tinchlik, do'stlik, savdo va talofotlarni qoplash haqida"gi shartnoma imzolandi. Bu shartnoma Xitoyning chet el davlatlari bilan birinchi asoratli shartnomasi edi. Nankin shartnomasiga muvofiq, Xitoy inglizlarga savdo qilish uchun beshta bandargohni – Guanchjou, Syamin' (Amoy), Fuchjou, Shanxay, Ninboni ochib berdi, ularda inglizlar o'z konsulxonalarini ta'sis etish huquqini oldilar. "Koxong" monopol kompaniyasi tugatildi, britan boy savdogarlari "istagan kishi bilan" savdo qilish huquqini qo'lga kiritdilar. Xitoy imperatori Syangan orolini Buyuk Britaniya qirolichasiga bo'shatib berdi. Ingliz tovarlariga tovar qiymatining 5 foizidan oshiq bo'lmagan imtiyozli bojxona tariflari o'rnatildi. Xitoy hukumati Angliyaga katta tovon puli to'lashga majbur edi. U 21 mln. lyani bo'lib, uning 6 mln. lyani yo'q qilingan afyunning qiymatini qoplashga, 3 mln. lyani ingliz firmalarining ko'rgan zararini qoplashga va 12 mln. lyani esa Angliyaning Xitoydagi urush harajatlarini o'rnini to'ldirishga qaratilgan edi.⁵⁷

Bu bilan kifoyalanib qolmay Angliya 1843 yil Xitoyni ingliz fuqarolariga eksterritoriallik huquqini (Xitoy sudlarida sud qilinmaslik) beruvchi qo'shimcha shartnoma imzolashga majbur qildi. Ochiq portlarda chet el manzilgohlari (setil'mentlar) tizimi ta'sis etildi, ularda chet ellik mustamlakachilar to'la xo'jayin bo'lib olardilar.

Angliya orqasidan Xitoyga boshqa kapitalistik davlatlar ham intildilar. 1843 yil oxirida Xitoyga AQSH vakili ham kelib Angliyaga berilgan imtiyozlar berilishini talab qildi. Aks holda urush boshlash bilan tahdid qildi. Bu taxdidlar natijasida 1844 yil teng huquqli bo'lmagan Amerika-Xitoy shartnomasi imzolandi. U chet elliklarga

⁵⁷ "Новая история Китая". М. 1992.

Nankin shartnomasi bergan imtiyozlarni kengaytirdi. O'sha yili shunday shartnoma Frantsiya bilan ham imzolandi. Ilgari imzolangan shartnomalarda ko'zda tutilgan imtiyozlardan tashqari frantsuzlarga ochiq portlarda katolik cherkovlar qurish va missionerlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berildi. G'arb davlatlari Xitoy xalqini asoratga solish uchun xristian cherkovi va missionerlardan foydalanishning keng imkoniyatlarini qo'lga kiritdilar.

Yirik kapitalistik davlatlar ortidan Xitoy bilan xuddi shunday shartnomalarni Bel'giya, Shvetsiya va Norvegiyalar imzoladilar.

Shunday qilib, birinchi "afyun" urushi Xitoyning tarixiy rivojlanishidagi muhim marra bo'lib qoladi. Mamlakat qurol kuchi bilan chet el sarmoyasini suqilib kirishi uchun ochilgan edi. Angliya, Frantsiya va AQSH mustamlakachilari Xitoyda ilk muhim siyosiy va iqtisodiy pozitsiyalarni egallab oldilar. Xitoy hududining bir qismi bo'lgan Syangan oroli Angliyaning (Gonkong) mustamlakasi bo'lib qoldi. Nankin shartnomalari Xitoy davlati milliy mustaqilligi va suverenitetini kamsitilishiga asos soldi.

Ochiq portlarning paydo bo'lishi bilan Xitoyga Yevropa mamlakatlari va AQSHdan tovarlar keltirish kengaya boradi. Xitoy jahon kapitalistik bozor maydoniga tortila bordi.

2.2. Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi milliy ozodlik kurashini boshlanishi.

Asoratli shartnomalarni qabul qildirilishi chet davlatlarga (ayniqsa Angliyaga) Xitoyda iqtisodiy ekspansiyani kuchaytirish imkonini berdi. Chet mamlakatlar fabrikalarida ishlab chiqarilgan Xitoyga seldek oqib kelgan arzon mollar hunarmandlarni xonavayron qildi. Xitoy hunarmandlarining tayyorlagan mahsulotlari raqobatga bardosh bera olmay qoldi. Bog'dixon hukumati Angliyaga tovon puli (kontributsiya) to'lash uchun xaddan tashqari ko'p bo'lgan soliqlarni yana oshirdi, millionlarcha dehqonlar xonavayron bo'lib, qashshoq hayot kechirishga duchor qilindi. Chet davlatlarning Xitoyni asoratga solishi mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni tezlik bilan izdan chiqa borishini, dehqonlar harakatini urush darajasiga chiqib ketishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi.

1850 yilda Janubiy Xitoyda milliy, feodal zulmdan sabri kosasi to'lgan dehqonlarning qo'zg'oloni boshlanadi. Qo'zg'olonchilar Yanztsi daryosi bo'yidagi vodiya qarab yo'l oldilar. Ularning soni tez ortib borib yarim million kishiga yetadi. SHahar kambag'allari, hunarmandlar, yuk tashuvchilar, qayiqchilar, kon ishchilari dehqonlarga qo'shila bordi. Manjurlar hukmronligidan xalos bo'lishga intilgan mayda zamindorlar ham qo'zg'olonda qatnashdilar. Dehqonlar harakati boshlangan vaqtga kelib, chet el sarmoyadorlari Xitoyni asoratga sola boshlagan edi. Xitoy aholisining eng katta qismini tashkil qilgan dehqonlar ommasi bilan Xitoyning manjur hukmdorlari boshchilik qilgan zamindorlar o'rtasida ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Xitoydagi xalq harakati dehqonlarning feodal zulmga va manjurlar hukmronligiga qarshi qaratilgan urush tusini oldi.

Qo'zg'olonchilar o'z davlatlari tuzilganligini e'lon qildilar va uni "Taypin Tyan'go" (Samoviy buyuk farog'at shoxligi) deb atadilar. Shu sababli qo'zg'olon taypinlar qo'zg'oloni nomini oldi. Nankin shahri taypinlarning poytaxti bo'ldi.

Asli dehqon oilasiga mansub qishloq o'qituvchisi Xun Syutsyuan' taypinlar harakatiga boshchilik qildi. U xristianlik ta'limoti to'g'risidagi gaplarni eshitib, o'zini Iso payg'ambar (Isus Xristos)ning ukasi deb e'lon qiladi.⁵⁸ Taypinlar monarxiya shaklidagi davlatni tuzadilar. Xun Syutsyuan' imperator, harakat rahbarlari knyaz unvonini oladilar. Taypinlar qadimiy mansab va darajalarni hamda yer egalarining boshqa odatlarini saqlab qoldilar. Masalan, taypinlar knyazi o'tib borayotgan paytda yo'lda uchraganlarning hammasi qatl etilish xavfi ostida uni mukka tushib kutib olishar edi. Xitoy dehqonlarining feodal tartiblarga asoslangan tuzumga qarshi harakati monarxistik xarakterda bo'lib ("yomon" podsho o'rniga "yaxshi" podsho) diniy tus olgan edi.

Taypinlarning peshonalariga o'raydigan qizil ro'mollari ularni tashqi belgisi edi. Taypinlar soch kokillarini kesib tashladilar. Ilgari erkaklar manjurlarga itoat, sadoqat ramzi sifatida shu kokillarini qo'yib yurardilar.

Taypinlar xalqning nafratiga duchor bo'lgan manjur amaldorlarini o'ldirar, boy va zamindorlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak va qimmatli narsalarini musodara qilardilar. Taypinlar barchani ijtimoiy tenglikka chaqirib, aslzodalarning qizil yog'ochdan yasalgan jihozlarini uylaridan olib chiqib, ko'chalarda gulxan qilib yondirardilar, ulardan tortib olingan marvarid-durlarni xovonchaga solib tuyardilar.

Taypinlar yer haqida qonun chiqardilar. Bu qonunda "Erlarning barchasi insonlarning jinsidan qat'iy nazar, jon boshiga qarab taqsimlanadi" deyilgan edi. Bu qonun yerlarni dehqonlar o'rtasida teng bo'lib berishni ko'zda tutardi. Buning uchun yirik zamindorlarning yerlarini musodara qilish zarur edi, bu esa mamlakatda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishini tezlashtirgan bo'lur edi.

Biroq taypinlarning real siyosatlari ularning dasturidan anchagina farq qilar edi. Taypinlar yerlarni dehqonlar o'rtasida teng taqsimlab bermadilar. Ular o'zlariga

⁵⁸ В.Сидихменов. "Манжурские правители Китая". М. 1993.

qarshi chiqmagan zamindorlarga qo'l tekizmadilar. Pomeshchiklar ham dehqonlarni avvaldagidek ezishga jur'at etmadilar, ijara haqini kamaytirdilar. Soliq mashaqqatlari birmuncha bo'shashtirildi. Taypinlar garchi feodal munosabatlarni yemirib tashlamagan bo'lsalar ham, har holda xalq ommasining qismatini yengillashtirishga intildilar.

Taypinlar Nankin shahrini ishg'ol etgach, sinlarning poytaxti Pekinga yurish qildilar. Lekin ular dushmanning kuchlariga yetarli baho bermaydilar. Pekinga xujum qilish uchun bor yo'g'i 30 ming nafar askar ajratilgan edi.⁵⁹ Shu bois taypinlar Pekinga yetib bora olmaydilar, ular yo'lda qurshab olinib, tor-mor keltiriladilar.

Dehqonlar harakati davomida yo'l qo'yilgan eng katta xatolardan biri knyazlar o'rtasida kuchli raqobatni vujudga kelishi bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Taypinlar yo'l boshchilarining ko'p qismi oddiy xalq orasidan chiqqan bo'lsa ham, o'zlari e'lon qilgan tenglik tamoyillariga mutlaqo amal qilmay, manjur yirik zamindorlari singari xizmatkorlar saqlagan holda zeb-ziynatda yashadilar. Knyazlar o'rtasidagi kuchli raqobat oqibatida taypinlarning yuqori qatlamlari orasida qonli nizolar vujudga keladi. O'zaro qirg'in vaqtida harbiy boshliqlardan bir necha kishi va o'ng minglab jangchilar xalok bo'ladilar. Bu holat ham taypinlarning kuchlarini zaiflashishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Taypinlar harakati yillarida Angliya va Frantsiya Xitoy bilan ikkinchi "afyun" urushini olib bordilar. Ular Pekinni ishg'ol qildilar va Sinlar hukumatining yana ko'p yon berishiga erishdilar, bu yon berishlardan biri Xitoyda yana afyun sota boshlashga ruxsat olinishi edi.

Taypinlarning yo'l boshchilari g'arbdagi "qardosh-xristianlar" mal'un manjurlarga qarshi yordam beradilar, deb soddalik bilan ishongan edilar. Lekin

⁵⁹ Губер А. Ким Г. Хейфец Г. "Новая история стран Азии и Африки". М. 1995

Angliya, Frantsiya va AQSH bog'dixon hukumatining yon berishiga muvaffaq bo'lganidan so'ng taypinlar harakatini bostirishda ishtirok etdi.⁶⁰

Interventsiyachilar taypinlar egallab turgan shaharlarni qattiq to'pga tutdilar, taypinlarning otryadlarini Shanxaydan xaydab chiqardilar. 1864 yili manjur qo'shinlari interventsiyachilarning yordami bilan Nankinga bostirib kirdilar va bu shaharda mudxish xunrezlik qildilar. Chorasiz qolgan Xun Syutsyuan' o'z joniga qasd qilishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, taypinlar harakati asosan feodal tartiblarga asoslangan tuzumga qarshi qaratilgan bo'lsa-da, ayni vaqtda milliy ozodlik harakati ham edi.

Afyun urushlari taypinlar qo'zg'olonini Xitoy reaksion kuchlari va amerika-ingliz-frantsuz interventsiyachilari zarbalari ostida mag'lubiyatga uchrashi Xitoyga bundan keyingi davrda chet el sarmoyasini kirib kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi.

Sinlar hukumatini G'arb davlatlariga siyosiy qaramligi kuchayib bordi, binobarin ular Xitoyning feodal-absolyutistik siyosiy tizimidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanardilar. Qo'lga kiritilgan bojxona apparati mustamlakachilar qo'lida muhim qurol bo'lib qoldi. Bojxona ustidan nazorat chet elliklarga mamlakat moliyaviy ahvoliga ta'sir o'tkazish imkonini berardi.

1864 yildan 1894 yilgacha bo'lgan 30 yil davomida Xitoy bilan g'arb davlatlarining savdo xajmi deyarli uch baravar ko'paydi.⁶¹ Xorijliklar Xitoyda kema qatnovi kompaniyalarini yaratdilar, temir yo'llar qurilishiga dastlabki urunishlar qilindi, chet el banklari o'z faoliyatlarini boshlaydilar. 1865 yil inglizlarning Gonkong-Shanxay bankiga asos solindiki, u iqtisodiy ekspansiyada mustamlakachilarning muhim quroli bo'lib qoldi.

⁶⁰ Розалиев Ю.Н. "Новая и новейшая история стран Азии и Африки". М. 1987.

⁶¹ Губер А.А. Ким Г.Ф. Хейфец А.Н. "Новая история стран Азии и Африки". М.1992.

Chet el sarmoyasini kirib kelishi bilan Xitoyda tovar-pul munosabatlarini o'sishi va feodal jamiyati ichida kapitalistik xo'jalik shaklini mustahkamlanishi kuzatildi. Chet elliklarga qarashli bo'lgan korxonalar bilan bir qatorda 70-80 yillarda xitoyliklar tomonidan qurilgan, mashina texnikasi qo'llanilgan ilk korxonalar vujudga keldi. Xitoy qishloqlariga pul-tovar munosabatlarini kirib borishi kuchaydi.

Biroq chet el mustamlakachilarining Xitoydagi maqsadi feodal Xitoyni kapitalistik davlatga aylantirish emasdi. Ular uni mustamlakaga, o'z kapitalistik sanoatlarini agrar-xom ashyo qo'shimchasiga aylantirishga intildilar.⁶²

XIX asr oxiriga kelganda Xitoyda xukm surgan feodal sarqitlar va chet el sarmoyasining mamlakatga tez suqilib kirishi uning iqtisodiy taraqqiyotiga to'siq bo'lib qolayotgan edi. Lekin bunday sharoitlarda ham Xitoyning milliy sanoati vujudga kela boshladi. U bilan bog'liq milliy burjuaziya va boshqa ilg'or qatlamlar shakllana bordi. Biroq kompradorlar ya'ni chet el sarmoyasi bilan Xitoyning ichki bozori o'rtasidagi vositachilar Xitoy milliy burjuaziyasining talaygina qismini tashkil etardi. Feodallar singari komprador burjuaziya ham monarxiya rejimi bilan va asoratga soluvchi ajnabiylar bilan bog'langan reaksion kuch edi. Pulga muxtoj bo'lgan hukmron sin sulolasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar tuzar va ularga ko'p jihatdan yon berar edi.

Temir yo'llar qurilishi ajnabiylar qo'lga o'tdi. Ko'mir shaxtalari, konlarning ko'p qismi ham chet elliklar qo'lida edi. Xitoy chet davlatlarning qo'shimcha agrar-xom ashyo manbaiga aylana bordi.

Yaponiya bilan urushda (1894-1895 yillar) Xitoyning yengilishi mustamlakachilarni bu mamlakatni yanada ko'proq talashi va asoratga solishi uchun turtki bo'ldi. Nemis mustamlakachilari 1897 yilda Tszyaochjou buxtasini bosib oldilar va Shan'dun viloyatini o'z ta'sir doirasiga kiritdilar. Frantsiya Guanchjouvan'

⁶² "Новая история Китая". М.1992.

buxtasini bosib oldi va Yun'nan' viloyatida hukmron ta'sirga ega bo'lib oldi. Xitoyning eng boy qismi bo'lgan Yantszi daryosi havzasi Angliyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. Futszyan' viloyatida yapon agressorlari hukmron bo'lib oldilar. Xitoy tobora ko'proq chet davlatlarning yarim mustamlakasiga aylana bordi.

1899 yilda nemis mustamlakachilari beboshlik qilgan Shan'dun viloyatida inqilobiy harakatlar keng tus oldi. Bu viloyatda yashirin jamiyatlar harakat qildilar. Bu jamiyatlar jangovar otryadlarni tuzdilar. Ana shu otryadlar "tinchlik va adolat uchun kurash" (Xitoyga "xetuan") otryadlari nomini oldi. Ular chet el bosqinchilariga qarshi qurolli kurash boshladilar. Xalq qattiq g'azablangan edi.

Qo'zg'olonchilar 1900 yil iyun' oyida Pekinga kiradilar. Ular chet el diplomatiya missiyalari joylashgan "elchilik kvartali"ni qamal qila boshladilar.

Mustamlakachi davlatlar halq qo'zg'olonini tor-mor keltirish maqsadida birgalikda interventsiya qilish to'g'risida kelishib oldilar. Angliya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Frantsiya, Rossiya, Italiya va Avstriya-Vengriya Xitoyga o'z qo'shinlarini yubordilar. Qotillar Xitoy xalqining milliy-ozodlik harakatini o'ta shafqatsizlik bilan qonga botirdilar.

Sinlar hukumati xalqqa xiyonat qilib, poytaxtdan qochib ketdi. Chet el qo'shinlari 1900 yil avgust oyining o'rtalarida Pekinni ishg'ol qilib, shaharni talon-taroj qildilar. Mustamlakachilar qo'zg'olonni bostirib, Xitoyni yangi asoratli shartnomalar tuzishga majbur qildilar. Buning natijasida Xitoy jahon imperiyalar tizimi oldida yana ham himoyasiz bo'lib qoldi. Xitoyda ajnabiylarning imtiyozlari oshdi.

Shunday qilib, mustamlakachilarga qarshi qaratilgan "ixetuan"lar qo'zg'oloni bostirilgan bo'lsa-da, har holda natijasiz qolmadi desak to'g'ri bo'ladi. U mustamlakachilarni Xitoyda ancha ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etgan edi.

2.3. Xitoyda monarxiyani ag'darilishi. Respublika ta'sis etilishi.

XX asrning birinchi o'n yilligi Xitoyda manjurlar hukmronligining so'nggi davrlari edi deksak to'g'ri keladi. Biroq ular hukmronligining barham topishi uchun hali oldinda unchalik uzoq bo'lmasa-da, xalqning muttasil, mashaqqatli kurash bosqichi turardi.

XX asr boshlariga kelganda Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashib, manjurlarning Sin sulolasi hukmronligi inqirozi yaqqol ko'rinib borayotgan edi. Xalq ommasi orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakatlar kuchayib bordi. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda avj olgan inqilobiy harakatlar Xitoyga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Lekin bu harakat Xitoyning o'zida "siqib" qo'yilgan edi. Ayni vaqtda Xitoyga nisbatan chet davlatlarning zug'umi kuchayib, ularning mamlakatga kiritayotgan sarmoyasi tez ko'payib bordi. Biroq, Xitoyning milliy sanoati, savdosi ancha orqada qolgandi. 1900-1913 yillarda chet el firmalari soni 2400taga yetdi. 1914 yilga kelib, Xitoy chet davlatlardan 835 mln.dollar qarzdor bo'lib qoldi.⁶³ Ishchilar qatlami Xitoyda hali katta kuchga aylanmagan bo'lsa-da, ularning soni o'sib bormoqda edi. Qishloqlarda dehqonlar yirik yer egalari zulmi ostida azob chekar edilar. Xitoy milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi Sun Yat Sen 1905 yil avgust oyida "Xitoy uyushmalari ittifoqi" (Tunminxoy) degan siyosiy tashkilot tuzadi. Bu tashkilotning yirik shaharlarda yashirin bo'limlari ochiladi. Tashkilot Sun Yat Sen rahbarligida o'z dasturini qabul qiladi. Unda Sin monarxiyasini ag'darib tashlash, mamlakatda Respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashtirish, mustaqillikni tiklash, millatparvarlik, xalq farovonligi kabi talablar ilgari surildi.

⁶³ "Новая история Китая". М.1992.

1905-1906 yillarda Xitoyda ijtimoiy harakat yanada faollashdi. Konstitutsiyaviy monarxiya hukumatini tuzish rejalari ilgari surildi. Biroq Sun Yat Sen tashkiloti konstitutsiyaviy monarxiya tuzish haqidagi fikrlarni qoralab, Respublika tuzish talablarini ko'tarib chiqdi. Bu chaqiriqlar manjurlarga qarshi harakatlarni yanada kuchaytirdi.

1906 yili Markaziy, Janubiy Xitoyda dehqonlarning ko'p sonli qo'zg'olon va g'alayonlari avj olib ketadi. Buning asosan ikkita sababini ko'rsatib o'tish joiz. Birinchidan buning sababi tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan ochliklar va ikkinchidan yirik zamindorlar va amaldorlar tomonidan mavjud holatni hisobga olmay soliqlar yig'ilishi edi.⁶⁴

1907-1908 yillarda dehqonlarning qo'zg'olonlari, askarlar orasidagi g'alayonlar davom etadi. Bir necha yig'ilishlar "Uyushgan ittifoq"ning mahalliy tashkilotlari tomonidan tashkil qilinadi. Uning obro'-e'tibori va ta'siri sezilarli darajada oshadi.

1907-1908 yillarda liberal burjuaziya – zamindorlar muxolifati ilk petitions kompaniyani o'tkazadi. Pekinga yuborilgan petitionslar – (iltimosnoma)da zudlik bilan parlamentni chaqirish istaklari bildirilgan edi. 1909 yil oktyabrda 22ta provintsiyada gubernatorlar va noiblar qoshida maslahat majlislari tashkil qilinadi. Bunday yon berish endilikda hech kimni qoniqtira olmasdi. 1910 yilning bahori va kuzida liberallar yangi petitions kompaniyani o'tkazadilar. Hukumat yarim tarkibi provintsiyalar maslahat majlislari vakillaridan iborat bo'lgan Oliy maslahat palatasini chaqiradi. Uning a'zolarini yarmi regent tomonidan tayinlanadi. Bu palata ham zudlik bilan parlament chaqirilish talabini qo'llab-quvvatlaydi. Tez orada hukumat konstitutsiya 1916 yilda emas, 1913 yilda joriy qilinishini e'lon qiladi.

⁶⁴ "Новая история Китая". М. 1992.

Biroq bu chora-tadbirlar inqilobiy harakatlarni o'sib borishini to'xtatib qololmadi. Muttasil zudlik bilan parlament chaqirish talablari ilgari surilaverdi. Inqilobiy harakatga tobora aholining keng qatlamlari qo'shila bordi. 1910 yildan boshlab inqilobiy chiqishlar hukumat uchun xavfli tus ola boradi.

1910 yil yanvarida "Uyushgan ittifoq" Guanchjou gornizoni askarlarining qo'zg'olonini tashkil qiladi. Biroq tayyorgarlikning yetarli darajada bo'lmaganligi tufayli qo'shinlarning bir qismigina bosh ko'tardi va ular mag'lubiyatga uchradilar. Qo'zg'olon rahbarlari jangda xalok bo'ldilar.

Guanchjoudagi yangi qo'zg'olon 1911 yilning apreliga belgilangan edi. Qo'zg'olonni tayyorlash bo'yicha markazga Xuan Sin boshchilik qiladi.⁶⁵ 27 aprelda inqilobiy qo'shinlar otryadlari general-gubernatorning qarorgohiga zarba beradilar. Ayovsiz ko'cha janglaridan so'ng ular hukumat qo'shinlari tomonidan tor-mor keltirildilar. Vatanparvarlar qo'zg'olonning 72 nafar qaxramoni jasadlarini Guanchjou ko'chalaridan yig'ib olishga va Xuanxuagan tog'idagi qardoshlik qabristoniga dafn etishga muvaffaq bo'ladilar. Bu qabriston keyinchalik Xitoy xalqining intsilobiy qadamjolaridan biri bo'lib qoladi.

"Uyushgan ittifoq" tomonidan tayyorlangan chiqishlar bilan bir qatorda mamlakatning turli joylarida xalq ommasining feodal tartiblarga qarshi yirik stixiyali chiqishlari davom etardi. Jumladan, 1910 yilda 80 marta ochlik isyonlari bo'lganligi qayd etilgan. Xunan provintsiya markazi – Chanshadagi aprel' oyida bo'lgan "sholi isyoni" ular ichida eng yirigi bo'lgan edi.

1910 yil va 1911 yil birinchi yarmida sodir bo'lgan voqealar Xitoyda inqilob yetilib qolganligidan dalolat berar, Sin hukumatining siyosati esa vaziyatni faqat keskinlashtirar, u hamon tub siyosiy islohotlar o'tkazish niyatida emasdi.

⁶⁵ Никифоров В.Н. "Синьхайская революция". М. 1979.

1911 yil 9 mayida hukumat temir yo'llar va temir yo'llar qurilishini milliylashtirish to'g'risida farmon chiqardi. Shuning ortidan Angliya, Frantsiya, Germaniya va AQSHning bank konsortsiumi bilan temir yo'llar qurilishini davom ettirish uchun asoratli zaym to'g'risida bitim imzolanadi. Shunday qilib, hukumat tomonidan e'lon qilingan milliylashtirish temir yo'llar qurilishi uzil-kesil chet el sarmoyasi nazorati ostiga o'tganligini bildirardi. Xunan, Sichuan', Guan'dun va Xubey provintsiyalaridagi temir yo'llar hissadorlik jamiyatlaridagi Xitoylik paychilar nafaqat bundan buyon qurilishda ishtirok etishdan chetlashtirilibgina qolmay, balki o'z sarmoyalarini anchagina qismini yo'qotgan edilarki, binobarin aktsiyalarning qiymatini bir qismigina qoplab berilgan edi.

Bu choralar aytib o'tilgan provintsiyalardagi aktsiyaga egalik qilgan tijorat ahli va zamindorlarining bir qismi orasida kuchli norozilik uyg'otdi. Shuningdek, sin hukumatining xalqqqa qarshi siyosati keng xalq ommasini ham junbushga keltirgan edi.⁶⁶ Provintsiyalarda g'alayonlar boshlanadi, ular ayniqsa Sichuan provintsiyasida keng ko'lamga ega bo'ladi. 1911 yilning sentyabrda u yerda qo'zg'olon ko'tarilib, qo'zg'olon vaqtida general-gubernator o'ldiriladi. Hukumat qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa ham bu uning so'nggi g'alabasi edi. Norozilik va g'alayonlar ayniqsa Markaziy Xitoyda kuchli bo'lib, tobora o'sib borayotgan edi. Manjurlar monarxiyasiga qarshi inqilob shu tariqa boshlanayotgan edi.

Guanchjou qo'zg'oloni (1911 yil aprel') bostirilgandan so'ng "Uyushgan ittifoq"ning inqilobiy faoliyat markazi Uxan rayoni (Uchan, Xan'yan, Xan'koudan iborat) bo'lib qoladi. Uxan metallurgiya, to'qimachilik va choy sanoat-markazi bo'lib, bu yerda ko'plab banklar va savdo firmalari to'plangan edi. Uxanda ko'pgina o'quv muassasalari, katta harbiy gornizon joylashgan edi. Mahalliy inqilobiy tashkilotlar qo'shinlarda, o'quvchi yoshlar orasida mayda burjuaziya, ishchilar

⁶⁶ "Новая история Китая". М. 1992.

orasida targ'ibot ishlari olib boradilar. Ular maxfiy bo'lgan dehqon jamiyatlari bilan aloqada edilar.

Sichuandagi qo'zg'olon to'g'risidagi xabar Uchanning inqilobiy tashkilotlari faoliyatlarini jonlantirib yubordi. 9 oktyabrda inqilobchilarning yashirin kvartirasida o'q dorilar portlashi sodir bo'ladi. Politsiya tekshiruvi paytida tashkilotning ro'yxati uning qo'liga tushib qoladi. Shundan so'ng qamoqqa olishlar boshlanadi. 10 oktyabr kuni ertalab qamoqqa olingan inqilobchilar oshkora qatl qilinadilar. Ozodlikda qolganlari esa zudlik bilan bosh ko'tarishga qaror qiladilar.

10 oktyabrda kechqurun gornizonning inqilobiy kayfiyatdagi qismlari askarlari qo'zg'olon ko'taradilar. Bir necha soatdan so'ng qo'zg'olon ko'targanlar shaharni egalladilar. Ular tarafiga butun garnizon, shuningdek ishchilar, talabalar qo'shildilar.

1911 yil 10 oktyabri Xitoy xalqi ozodlik kurashi tarixiga "Sinxay inqilobi" nomi bilan kirgan inqilobning boshlanish kuni bo'lib qoldi. Uchan qo'zg'oloni butun mamlakat bo'ylab inqilobni avj olib ketishiga signal bo'ldi. Bir necha kun davomida Uchanga yondosh Xan'kou va Xanyanda Sin hukumatining hokimiyati tugatildi. Undan keyin inqilob tomoniga boshqa muzofotlar va shaharlar o'ta bordilar. Oktyabr oyida inqilob Xunan, Tszyansi, Shensi, Shansi, Yun'nanda, noyabrda An'xos, Tszyansu, Guandun, Chjetszyan va boshqa joylarda g'alaba qozondi. Noyabr oyining boshlarida Shanxay qo'zg'olon ko'targan askar va ishchilar qo'liga o'tdi. Jami 15ta provintsiya manjurlarning Sin hukumatiga bo'ysunishdan bosh tortdi.

Ko'pchilik bu provintsiyalarda inqilobiy otryadlar bilan hukumat qo'shinlari o'rtasida qurolli to'qnashuvlar sodir bo'ldi. Fuqarolar urushi hukumat qo'shinlarining asosiy kuchlari yuborilgan Markaziy Xitoyda katta ko'lam kasb etadi.

Uchan, Shanxay va boshqa shaharlardagi qo'zg'olon ko'targan qo'shinlar inqilobiy armiyaning yadrosi bo'lib qoldilar. U dehqonlar, ishchilar, talabalar, shaharlar mayda burjuaziyasidan iborat ko'ngillilardan shakllantirilgan edi.

Garchi inqilob g'alabalari xalq ommasining qaxramonona kurashi natijasida qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, hokimiyatning yangi organlarida ustuvor mavqeni liberallar egallab oldilar. Ba'zi provintsiyalarda hokimiyat maslahat qo'mitalariga o'tdi. Liberallar inqilob ko'lamini cheklashga, feodallar va Pekin hukumati bilan kelishishga intildilar.

Inqilobni ilk muvaffaqiyatlari Sinlar sulolasi hukmronligi tugayotganligidan darak berardi. Bunday og'ir vaziyatda Sinlar hokimiyatga Yuan' Shi-kayni chaqirishga qaror qildilar. 1898 yilda islohotchilarga xoinlik qilgan, mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan ixetuan qo'zg'olonini bostirgan jallodlardan biri bo'lgan Yuan' Shi-kay 1908 yilga qadar hukumat apparatida ko'zga ko'rinarli rol o'ynagan edi. U anchagina qo'mondonlik tarkibi uning tarafdorlaridan tarkib topgan Bayyan (Shimol) armiyasida katta ta'sirga ega edi. XX asr boshida Tsisi hukumatining islohotlarida Yuan' Shikayning ishtiroki unga inqilob g'alaba qozongan janubiy provintsiyalarning liberal elementlari bilan yaqinlashishga umid qilishga imkoniyat berardi.⁶⁷

Oktyabr o'rtalarida regent Yuan' Shi-kayni markaziy provintsiyalarning general-gubernatori etib tayinladi va unga qo'zg'olonni bostirishni yukladi. Biroq ayyor siyosatboz payt poylaydi. Faqatgina g'arb davlatlarini qo'llashlariga va Janubning liberallari bilan kelisha olishiga ko'zi yetgandan so'nggina, u inqilob bilan kurashga boshchilik qilishga rozi bo'ladi. Bunda Yuan' Shi-kay unga cheklanmagan vakolatlarni berilishiga erishadi. U endi bosh vazir va Sin hukumati qo'shinlarining qo'mondoni etib tayinlangan edi.

27 noyabrda Yuan' Shi-kay qo'shinlari Xan'yanni egallaydilar, biroq ularning bundan keyingi xujumlari to'xtatib qo'yildi. Frontda kuchlarning muayyan muvozanati yuzaga keldi. Yuan' Shi-kay inqilobiy armiya rahbariyatida bo'linishni

⁶⁷ Ефимов Г.О характере Синьхайской революции. Народы Азии и Африки. М.1972. № 3 стр.77

keltirib chiqarish maqsadida inqilobiy Janub rahbarlari bilan aloqa o'rnatishga intildi. Dekabr' boshlarida Uchan va Xan'kou rayonida harbiy harakatlar to'xtatildi. Ikki o'rtada muzokaralar boshlanib boshqa provintsiyalarda ham harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risida bitimga erishildi. Siyosiy masalalarni muhokama qilish chog'ida Yuan' Shi-kay vakillari konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatilishiga rozilik bildiradilar, biroq inqilobiy armiya vakillari Sinlarni hokimiyatdan chetlatishni va Respublika e'lon qilinishini talab qildilar.

Muzokaralar cho'zilib borardi, Janubiy provintsiyalarning liberal elementlarida Yuan' Shi-kay bilan kelishishga intilish kuchayadi. Inqilobiy provintsiyalar muzofotlar hokimiyati vakillarining yig'ilishlaridan birida agar Yuan' Shi-kay respublikani tan olsa, uni prezident etib saylash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ayni vaqtda Yuan' Shi-kayning Pekindagi mavqei ham kuchayib bordi. Dekabr' boshlarida uning talabi bilan regent Tszay Li iste'foga chiqadi. Shu tariqa Yuan' Shi-kay deyarli to'liq sinlar sulolasi nazoratidan xalos bo'ladi.

Inqilobiy lagerda markaziy hukumatni tuzishning o'tkir zaruriyati seziladi, zero u inqilob tomoniga o'tgan barcha muzofotlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirgan bo'lur edi. Noyabr' oxirlarida barcha inqilobiy qo'shinlarning yagona qo'mondonligi tuziladi. Xuan Sin bosh qo'mondon, Lu Yuan'-xun uning o'rinbosari bo'ladi.⁶⁸

13 dekabrda inqilobiy provintsiyalar vakillari Xitoy Respublikasining muvaqqat prezidentini saylovlari uchun Nankinga jo'nab ketadilar. Yuan' Shi-kay bilan davom etayotgan muzokaralar munosabati bilan prezident saylovlarini ortga surish, uning majburiyatlarini esa hozirgi bosh qo'mondonga yuklashga qaror qilinadi. Bunda Xuan Sin, nomzodi o'ng liberal elementlarni ko'proq qoniqtirgan Li Yuan'-xun bilan almashtirildi.

⁶⁸ Сидихменов В. "Манжурские правители Китая". М. 1993.

Inqilob haqidagi ilk xabarlarni amerikaligida eshitgan Sun' Yat-sen o'z Vataniga (Shanxayga) faqatgina 1911 yil 25 dekabrda qaytadi. U xalq ommasi tomonidan katta shod-xurramlik bilan kutib olinadi. Ko'pchiligi liberallarga qo'shilgan hatto Nankin konferentsiyasi delegatlari Xitoy demokratiyasi dohiysining katta e'tibor qozonganligini hisobga olib Sun' Yat-senni muvaqqat prezident lavozimiga tavsiya etdilar. 29 dekabrda endilikda Milliy majlis bo'lib qolgan Nankin konferentsiyasi Xitoyni Respublika deb e'lon qildi va Sun' Yat-senni uning muvaqqat prezidenti etib sayladi.

1912 yil 1 yanvarda Sun' Yat-sen Nankinga tantanali suratda kirib keladi va prezidentlik vazifasini bajarishga kirishadi. Milliy majlis vaqtinchalik qabul qilgan konstitutsiyada fuqarolarning tengligi va turli demokratik huquq va erkinliklar e'lon qilinadi.

Shunday qilib, keyingi voqealar rivoji qanday tus olishiga qaramay, salkam uch yuz yillik manjurlarning Sin sulolasi monarxiyasidan azob chekib kelgan Xitoyning Respublika deb e'lon qilinishi va Sun' Yat-senning prezident etib saylanishi Xitoy xalqining ulkan g'alabasi edi.

III - bob. Mavzuning metodik ishlanmasi. Mavzuning bir soatlik dars ishlanmasi.

Mavzu: Sin' sulolasi hukmronligi davrida Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol.

Darsni olib borish texnologiyasi.

Talabalar soni: 24	Vaqt: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Informatsion ko'rgazmali dars.
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi. 2. Sin' sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli (XVII-XIX asr boshlarida). 3. Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi. 4. Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi ozodlik kurashini boshlanishi. 5. Xitoyda monarxiyani ag'darilishi. Respublika ta'sis etilishi.
Mashg'ulotning maqsadi: Sinlar sulolasi hukmronligi davrida Xitoy tarixiga oid bilimlarni olishga talabalarni yo'naltirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi	Talabalar Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi to'g'risida

kurashi to'g'risida ma'lumotlar berish.	bilimlarga ega bo'ladilar.
Talabalarga Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli to'g'risida keng bilimlar hosil qilish.	Talaba-o'quvchilar Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli to'g'risida bilimlarni egallaydilar.
Talaba-o'quvchilarga Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi haqida keng bilimlar berish.	Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi to'g'risida talaba-o'quvchilar bilimlarga ega bo'ladilar.
Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi ozodlik kurashi boshlanishi to'g'risida talaba-o'quvchilarga ma'lumotlar berish.	Talaba-o'quvchilar Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi ozodlik kurashini boshlanishi haqida bilimlar xosil qilinadi.
Talaba-o'quvchilarga Xitoyda monarxiyani ag'darilishi, Respublikani ta'sis etilishi haqida bilimlar berish.	Xitoyda monarxiyani ag'darilishi, Respublikani ta'sis etilishi talaba-o'quvchilar keng bilimlarga ega bo'ladilar.
O'qitish usullari va texnika.	Ma'ruza, kichik guruhlarda ishlash. T-sxema.
O'qitish vositalari.	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor.
O'qitish shakllari.	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti.	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Darsning texnologik kartasi.

Ish jarayonlari vaqti.	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Ta'lim jarayoni "Kichik guruhlarda ishlash" orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (1-ilova)	Tinglaydilar.
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (2-ilova)	Kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi. (3-ilova) Mavzu yuzasidan blits-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi.	Tinglaydilar. Yozib oladilar, savollarga javob beradilar.
II-bosqich. Asosiy (50 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi to'g'risidagi mulohazalarini slaydlar orqali tahlil qiladi. (3-ilova) Talabalarni mulohazaga tortish uchun ularga savollar bilan murojaat qiladi: 1. Xitoyda manjurlar istilosi arafasidagi vaziyat qanday edi? 2. Nima uchun manjurlar istilosini oldini olish-	Tinglaydilar. Yozib oladilar, savollarga javob beradilar.

	ning imkoniyati bo'lmadi?	
	T-sxema texnikasidan foydalangan holda har bir guruhga "Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli" (XVII-XIX asr boshlarida) to'g'risida nimalarni bilasiz? degan savol bilan murojaat qiladi (4-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin baxs munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimotini o'tkazadilar.
	2.3. Sin imperiyasini yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi to'g'risida slayd orqali informatsiyalar beriladi. (5-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar, savollarga javob beradilar.
	2.4. Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi milliy ozodlik kurashini boshlanishi masalasi slaydlar yordamida yoritib beriladi. (6-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar, savollarga javob beradilar.
	2.5. Xitoyda monarxiyani ag'darilishi va Respublika ta'sis etilishi masalasi slaydlar yordamida yoritib beriladi.	Tinglaydilar, yozib oladilar, savollarga javob beradilar.
	2.6. Tayanch iboralarga qaytiladi.	

III-bosqich. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi va yakunlovchi xulosa qiladi.	Mustaqil T-sxemani to'ldiriladi. Erkin fikrini bayon etadi.
	3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiradi.	Eshitadi.
	3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi.	Eshitadilar va yozib oladilar.

1-ilova.

1-slayd.

Mavzu: Sinlar hukmronligi davrida Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol.

- Reja: 1. Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi.
 2. Sin' sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.
 3. Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi.
 4. Sin monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi Xitoy xalqi milliy ozodlik kurashini boshlanishi.

Maqsad: Sinlar sulolasi hukmronligi davrida Xitoy tarixiga oid bilimlarni egallashga talabalarni yo'naltirish.

Natijalar: 1. Talabalar Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur bosqinchilariga qarshi kurashi to'g'risida bilimlarga ega bo'ladilar.

2. Talaba-o'quvchilar Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to'g'risida bilimlarni egallaydilar.
3. Xitoyning yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi to'g'risida talaba-o'quvchilar bilimlarga ega bo'ladilar.
4. Talaba-o'quvchilarda Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi bilimlar xosil qilinadi.
5. Xitoyda monarxiyani ag'darilishi, Respublikani ta'sis etilishi to'g'risida talaba-o'quvchilar keng bilimlarga ega bo'ladilar.

2-slayd.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi lozim.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishni aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lmaganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin bayon eting.

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari.

Guruhlar	Savollarni to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolari faolligi 0-5 ball	Ja'mi ball

15 - 13 ball – “a’lo”

12 - 10 ball – “yaxshi”

9 – 6 ball – “qoniqarli”

Xitoy xalqining feodal tartiblar va manjur istilochilariga qarshi kurashi.

XVII asr boshlarida Xitoyda Min sulolasi hukmronlik qilardi. Biroq bu davrda Min sulolasi katta siyosiy inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Min amaldorlarining o'z mansablarini suiste'mol qilishlari, poraxo'rlikni avj olishi, soliqlarni oshirib yuborilishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tang ahvolga keltirib xalqni sabrkosasini to'ldirishi oqibatida milliy totuvlik, ijtimoiy barqaror izdan chiqqan va xalqning norozilik harakatlari dehqonlarning dehqon urushi darajasiga aylanib ketgan edi.

Dehqon urushi butun Shimoliy Xitoyni qamrab olgan edi. Qo'zg'olonchilar

mamlakatning poytaxti Pekinni ishg'ol qildilar. Shundan keyin Xitoy yirik zamindorlari o'z xalqiga xiyonat qildilar va 1644 yilda manjurlarni yordamga chaqirdilar.

Manjur otliqlari Xitoyga yopirilib kirib, qo'zg'olonni bostirdilar. Ammo manjurlar Xitoydan chiqib ketishmadi. Ularning hokimi o'zini Xitoyning imperatori deb e'lon qildi. Xalq ajnabiylarga qattiq qarshilik ko'rsatdi, ammo ko'p feodallar bosqinchilarga yordam berishdi. Manjurlar bosqinchilardan shafqatsiz o'ch oldilar. Millionlab kishilar kirib tashlandi. Manjurlarning Sin sulolasi Xitoyda 1644 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qildi.

2-slayd.

Tayanch so'z va iboralar.

Manjurlar	Sin sulolasi
Bog'dixon	Taypinlar
Afyun urushi	Sinxay inqilobi

4-ilova.

1-slayd.

T-sxemasi texnikasi.

- bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalarda	T-sxema qonun qoidalari bilan tanishib chiqadi. Yakka tartibda yoki juft-juft bo'lib T-sxemani to'ldiradi.
	O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng

<p>muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalilik va kamchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;</p>	<p>va chap taraflarida yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin.</p>
<p>- tanqidiy, taxliliy, aniq mantiqiy fikrlash muvaffaqiyatini rivojlantirishga, hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi.</p>	<p>Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin.</p>
<p>- ma'ruza yakunida qo'llaniladi;</p>	<p>Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin.</p>

2-slayd.

Sin sulolasi hukmronligidagi Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.

Manjurlar Xitoylar bilan qo'shilib ketishmadi, ammo Xitoy qonunlari, urf-odat tartiblarini saqlab qoldilar.

Imperator (bog'dixon) hokimiyati sira cheklanmagan hokimiyat edi. Imperator "osmon o'g'li" deb hisoblanar edi. Xitoyda feodal tartiblar hukm surardi. Dehqonlar aslida krepostnoy edilar.

Mamlakatdagi yuqori lavozimlarni manjurlar egallab olishdi. XVIII asrda juda ko'p bosqinchilik urushlari olib bordilar. Sinlarning mustabid rejimi ostida Xitoy o'z taraqqiyotida Yevropa va Amerika mamlakatlaridan tobora orqada qola bordi.

Xitoyni yarim mustamlaka asoratiga solina boshlashi.

XVIII asrning I-yarmida Xitoy portlarida yevropaliklar bilan savdo-sotiq qilinar edi. Yevropaga choy, chinni, shayi buyumlar yuborilar edi. Ajnabiylarning suqilib kirishi xitoylarning turg'un hayotini buzadi deb xavfsirab Xitoyni 1757 yili butun dunyodan ajratib qo'yish siyosatini o'tkaza boshladilar. Chet elliklar bilan savdo qilish uchun birgina Konton porti qoldirildi.

Inglizlar Kontonga kontrabanda yo'li bilan afyun keltira boshladilar va bu zaxri qatimni Xitoydan sotishdan katta foyda ko'rdilar. Bu esa Xitoy xalqini zaharlabgina qolmay, mamlakatni moliyaviy tang ahvolga soldi. Bundan xalq noroziligi yuzaga keldi. Xitoy ma'murlari afyun keltirishni ta'qiqlaganlaridan so'ng Angliya Xitoyga qarshi urush e'lon qildi. 1840-1842 yildagi 1-afyun urushi qoloq Xitoyni Angliya asoratiga tushishiga olib keldi. Nankin shartnomasiga muvofiq Xitoy Angliyaga 21 mln. Iyan tovon to'lashi zarur edi. Bundan tashqari Angliya Xitoyda anchagina imtiyozlarga ega bo'ldilar.

Sinlar monarxiyasi feodal tartiblariga va mustamlakachilikka qarshi ozodlik kurashini boshlanishi.

Asoratli shartnoma natijasida Angliyada ishlab chiqarilgan va Xitoyga keltirilgan arzon mollar Xitoy hunarmandlarini xonavayron qildi. Tovon to'lash maqsadida Bog'dixon hukumati soliqlarni yanada oshiradi, bu esa ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirib mamlakatda totuvlikni izdan chiqishiga va dehqonlarning taypinlar urushi deb atalgan harakatini yuzaga keltirdi. Taypinlar harakati eski feodal tartiblarni tugatishga qaratilgan edi. Bu Xitoyni kapitalistik taraqqiyotini tezlatgan bo'lur edi. Lekin bu harakat Sinlar hukumati tomonidan chet davlatlarning yordamida bostiriladi.

XIX asr oxirida Xitoyda hukm surgan feodal sarqitlar va chet el sarmoyasining asoratli shartlarda tez suqilib kirishi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qildi. Xitoyni tobora chet davlatlarni mustamlakasiga aylantirish siyosati xalqning norozilik harakatlarini kuchaytirib bormoqda edi.

Xitoyda monarxiyani ag'darilishi va Respublikani ta'sis etilishi.

XX asr boshlariga kelganda Xitoyda Sinlar hukmronligi chuqur inqirozga uchradi. Pulga muxtoj bo'lgan sinlar sulolasi chet davlatlar bilan ko'plab asoratli shartnomalar tuzar va ularga ko'p jihatdan yon berar edi. Xitoy chet davlatlarning agrar xom-ashyo manbaiga aylana borayotgan edi.

1899 yilda nemis mustamlakachilari beboshlik qilgan Shan'dun viloyatida inqilobiy harakat ayniqsa keng tus oladi. Bu yerda yashirin jamiyatlar harakat qildi. Bu jamiyatlar jangovar otryadlarni tuzdilar. Ana shu otryadlar "Tinchlik va adolat uchun kurash" (Xitoyga "ixetuan") otryadlari nomini oldi. Lekin ixetuanlar harakati sakkiz imperiya davlati tomonidan bostirildi. Sin hukumati esa xalqqa xiyonat qilib poytaxtdan qochib ketadi. Mustamlakachilar Xitoyni yangi asoratli shartnomalar tuzishga majbur qildilar.

Inqilobchi-demokrat Sun' Yatsen (1866-1925) 1905 yilga kelib "Xitoy uyushmalar ittifoqi" degan siyosiy tashkilot tuzadi. Uning dasturida avvalo Sin monarxiyasini ag'darib tashlash, Xitoyda Respublika ta'sis etish, yerga egalik huquqini tenglashtirish talablari ilgari surildi.

Mazkur tashkilotning olib borgan inqilobiy faoliyati natijasida mamlakatda inqilobiy harakatlar Sinxay inqilobiga o'tib bordi. 1911 yil kuzida boshlangan inqilob pirovardida Xitoyda Sinlar hukmronligiga barham berdi. Respublika ta'sis etildi.

T-sxema jadvalini to'ldiring.

Savol: Xitoyda Sinlar hukmronligi davrida sodir bo'lgan ijobiy va salbiy o'zgarishlar, jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?

Ijobiy o'zgarishlar	Salbiy o'zgarishlar

Mavzuni o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikr, mulohazalar va tavsiyalar.

Yaqin vaqtlargacha an'anaviy ta'limda tarix fanini o'qitishda talaba (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda tarix fanini shu jumladan jahon tarixini o'qitish jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Shunday ekan talabaning faolligiga asoslanadigan texnologiyalarni jahon tarixi darslarida qo'llash yaxshi samara beradi. Men yangi tarix darslarini o'tishda, jumladan "Sin sulolasi hukmronligi davrida Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol" mavzusini quyidagi texnologiyalardan foydalanib o'tishni tavsiya etgan bo'lar edim.

“Skarabey” texnologiyasi.

“Skarabey” interfaol texnologiya bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)larda fikriy bog'liqlik, mantiqiy fikrlash, xotiralarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda o'z bilimlarining sifati va saviyasini xolisona baholashga, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlashga zamin yaratadi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

“Muloqot” texnologiyasi.

Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larning dars jarayonida mustaqil fikrlashiga, o'z fikrlarini erkin bayon etishiga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda, bunday mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)larni kichik guruhlariga ajratgan holda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida talaba (yoki o'quvchi)larning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

“Bahslashuv” texnologiyasi.

Talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv guruhlarida ularning o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko'nikishlari yoki o'zaro bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari uchun ba'zida ular o'rtasida bahslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday bahslar talaba (yoki

o'quvchi)larni o'z fikrlarini charxlab olishga, hayotga va turli muammolarga bo'lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini talaba (yoki o'quvchi)larning o'zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni bahsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo'lishi kerak, aks holda bahs davomida talaba (yoki o'quvchi)lar o'z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki bahsga qo'shilib o'z fikrlarini isbotlab, himoya qila olmaydilar. Bahslar talaba (yoki o'quvchi)larni ba'zi yanglish fikrlarga qarshi kurashishga o'rgatadi, atrofdagi bo'layotgan voqealarni tushungan holda to'g'ri sharhlashga, o'z fikrlarida turishga, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rsatishga hamda har bir fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab olishga, shu bilan bir qatorda o'rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish madaniyatiga o'rgatadi.

X U L O S A.

Osiyodagi eng katta mamlakatlardan biri bo'lgan Xitoy manjurlar istilosi arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Salkam yuz yildan beri hukmronlik qilib kelayotgan minlar sulolasi boshchiligidagi feodal munosabatlarga asoslangan tuzumning inqirozi sharoitida mamlakatda milliy totuvlik vaziyatiga rahna solinishi natijasida ijtimoiy ziddiyatlar tobora keskinlashib, butun Xitoyda buning oqibatida fuqarolar urushi kelib chiqdi. Fuqarolar urushi sharoitida mamlakat vayron bo'lishi barobarida o'zining harbiy saloxiyatini ham yo'qota bordi va shimolda tobora mustahkamlanib borayotgan Sinlar sulolasi boshchiligidagi manjurlar davlatiga qarshilik ko'rsatishi tobora qiyinlashdi. Buning ustiga, xalq harakatidan vahimaga tushgan Xitoy yirik feodallari o'z xalqiga xiyonat qilib, manjurlarni yordamga chaqirdilar.

Manjur otliqlari Xitoyga yopirilib kirib, feodal tartiblarga qarshi bosh ko'targan xalq qo'zg'olonini bostirdilar. Biroq manjurlar Xitoydan chiqib ketishni xayollariga ham keltirmadilar. Ularning xokimi o'zini Xitoyning imperatori deb e'lon qildi. Xalq ajnabiylarga bor kuchi bilan, qattiq qarshilik ko'rsatdi, ammo ko'p katta yer egalari ajnabiylarga yordam berishdi. Manjurlar bo'ysunmaganlardan shafqatsiz o'ch oldilar va millionlab kishilar qirib yuborildi. Sin sulolasi Xitoyda salkam uch asr hukmronlik qildi.

Manjurlar xitoyliklar bilan qo'shilib ketishmadi, ammo Xitoy qonunlari, urf-odat va tartiblarini saqlab qoldilar. Imperator (bog'dixon) hokimiyati sira cheklanmagan hokimiyat bo'lib, bu hokimiyat mamlakatda eski feodal tartiblarni har tomonlama mustahkamlash yo'lini tutdi.

Xitoyda XVIII asrda kapitalizm kurtaklari bo'lgan odamlar yollanib ishlaydigan ustaxonalar, manufakturalar paydo bo'lsa ham, feodallarning mustabid rejimi mamlakatning taraqqiyotiga to'sqinlik qildi.

Sinlar imperatorlari XVIII asrda juda ko'p bosqinchilik urushi olib bordilar. Manjurlar Jung'oriyani ishg'ol qilib aholisini deyarli tamoman qirib tashladilar. Sinlar Mongoliya bilan Tibetni o'zlariga bo'ysundirdilar. Ular Birmani ishg'ol qilishga ikki marta urunib ko'rdilar. Shuningdek, ular XVIII asr oxirida V'etnamga bostirib kirdilar, lekin qo'zg'olon ko'targan V'etnam dehqonlari ularni tor-mor keltirdilar.

Sinlarning mustabid tuzumi hukmronligi ostida Xitoy o'z taraqqiyotida Yevropa va Amerika mamlakatlaridan tobora orqada qola bordi. Sinlar ajnabiylarning suqilib kirishi xitoylarning turg'un hayotini buzadi va imperator hokimiyatiga putur yetkazadi deb xavotirga tushib, Xitoyni butun dunyodan ajratib qo'yish siyosatini o'tkaza boshladilar. 1757 yilgi bog'dixon farmoni ajnabiylar bilan savdo-sotiq qilish va aloqa bog'lashni ta'qiqlab qo'ydi. Biroq ajnabiylar bilan savdo qilish uchun janubda qoldirilgan Kanton porti orqali inglizlar kontrabanda yo'li bilan tobora ko'p afyun keltira boshlaydilar. Afyun nafaqat Xitoy xalqini zaharlabgina qolmay, balki mamlakat g'aznasini ham teng holatga keltirdi.

Kantonda Xitoy ma'murlari afyun keltirishni ta'qiqlaganidan so'ng Angliya Xitoyga urush e'lon qildi. 1840-1842 yillarda bo'lgan afyun urushi nomini olgan urushda inglizlarning g'alabasi Xitoyning har tomonlama qoloq bo'lib qolganligini ko'rsatdi. Nankinda tuzilgan asoratli shartnoma inglizlarga katta imtiyozlar berish bilan birga, Xitoyliklar zimmasiga katta tovon pul to'lash majburiyatini yukladi. Shundan so'ng Xitoy g'arbning kapitalistik davlatlariga qaram mamlakatga aylantirila boshladi.

Fabrikada ishlab chiqarilgan va Yevropada Xitoyga seldek oqib kelgan arzon mollar hunarmandlarni xonavayron qildi. Bog'dixon hukumati Angliyaga kontributsiya to'lash uchun haddan tashqari ko'p bo'lgan soliqlarni yana oshirdi, millionlarcha dehqonlar xonavayron bo'lib, chidab bo'lmaydigan qashshoqlikka

duchor bo'ldi. Yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sharoitida ichki ziddiyatlar tobora keskinlashib fuqarolar urushiga aylanib ketdi.

Taypinlarning dehqonlar urushi nomi bilan tarixga kirgan fuqarolar urushi salkam o'n besh yil (1850-1864 yillar) davom etib mamlakatga ulkan kulfatlar va talofotlar keltirdi. Buning ustiga eng yomoni bu urush g'arb davlatlari tomonidan katta yordam olgan Xitoy reaksiyon qatlamlarini – manjurlar boshchiligidagi Xitoy feodallarining g'alabasi bilan yakunlandi.

XIX asrning Xitoyda hukm surgan feodal sarqitlar va chet el sarmoyasining milliy manfaatlarni kamsitgan holda tez suqilib kirishi uning iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qildi. Lekin bunday sharoitlarda ham Xitoyning milliy sanoati vujudga kela boshladi va bu jarayonda ilg'or qatlamlar shakllana bordi. Lekin kompradorlar, ya'ni chet el sarmoyasi bilan Xitoyning ichki bozori o'rtasidagi vositachilar Xitoy milliy burjuaziyasining salmoqli qismini tashkil qilar edi. Feodallar kabi komprador burjuaziya ham monarxiya rejimi va asoratga soluvchi ajnabiylar bilan bog'langan reaksiyon kuch edi. Pulga muxtoj bo'lgan hukmron Sin sulolasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar tuzar va ularga ko'p jihatdan yon berar edi.

Bu vaqtda temir yo'llar qurilishi chet elliklar qo'liga o'tadi. Ko'mir konlari va boshqa konlarning ko'p qismi ajnabiylar ixtiyorida edi. Xitoy chet davlatlarning qo'shimcha agrar xom-ashyo manbaiga aylana bordi.

Xitoyning Yaponiya bilan urushda yengilishi (1894-1895) imperiya davlatlarining bu mamlakatni yanada ko'proq talashi va asoratga solishi uchun turtki bo'ldi. Xitoydagi ko'plab hududlar ta'sir doiralariga bo'lib olindi va mamlakat tobora chet davlatlarning yarim mustamlakasiga aylana bordi.

XIX asr oxirida dehqonlarning feodal zulmga qarshi boshlangan g'alayonlari muqarrar ravishda mustamlakachilarga qarshi qaratildi. Xitoyning ochiqdan-ochiq talanishi keng xalq ommasini kurashga otlantirdi. Xitoy ilg'or ziyolilari Xitoyda yagona inqilobiy tashkilot tuzish zarur, degan xulosaga keldilar. 1905 yilning

boshlaridayoq bir qancha shaharlarda yashirin gazetalar chiqa boshladi, ularda demokratik g'oyalar targ'ib qilindi va feodal Sinlar monarxiyasiga ham chet el mustamlakachilarga qarshi kurashga da'vat etila bordi.

Xitoy xalqining inqilobchi-demokrati Sun' Yatsen milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi bo'lib, u 1905 yili "Xitoy uyushmalari ittifoqi" degan siyosiy tashkilot tuzadi.

"Ittifoq" Sun' Yatsen rahbarligida keng inqilobiy dastur qabul qiladi. Bu dasturda Sinlar monarxiyasini ag'darib tashlash, Xitoyda respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashtirish talab etildi.

"Uyushmalar ittifoqi" faoliyatining ta'siri bilan 1906-1908 yillarda inqilobiy harakatlar to'liqini butun Xitoyga keng yoyildi.

1911 yil 10 oktyabrga o'tar kechasi "Uyushmalar ittifoqi" rahbarligida Xitoyning eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan Uchandagi qo'zg'olon Sinxay inqilobining boshlanishi edi. 1911 yilning oxiriga kelib bu inqilob deyarli butun Janubiy va Markaziy Xitoyga yoyildi.

Nankinda inqilobiy viloyatlarning vakillaridan iborat Millat Majlisi to'plandi. Millat majlisi respublika tuzilganligini e'lon qildi va o'sha vaqtda emigratsiyadan qaytib kelgan Sun' Yatsenni 29 dekabrda Xitoy respublikasining muvaqqat prezidenti qilib sayladi.

Millat majlisi vaqtincha qabul qilgan konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi e'lon qilingan va turli demokratik huquqlar haqida gapirilgan edi.

Shunday qilib, Sinxay inqilobi feodal munosabatlar ustidan to'la g'alaba qozona olmagan, chet davlatlarga qaramlikni tugatmagan bo'lsa-da, qoloqlik va qaramlikni bosh sababchisi bo'lib kelayotgan Sinlar monarxiyasini tugatib, respublikani e'lon qilishi bilan Xitoyda tarixiy taraqqiyot yo'lida yangi bosqichni boshlab bergan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. "O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". T. O'zbekiston. 1993.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T. O'zbekiston. 1997.
3. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T. O'zbekiston. 1998.
4. Karimov I.A. "Tinchlik uchun kurashmoq kerak". T. O'zbekiston. 2001.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida". T. O'zb-n. 2011.
6. Karimov I.A. "Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik". T. O'zbekiston. 1993.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni T. 1997.
8. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". T. 1997.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyul'. 315-sonli qarori. T.1998.
10. Novaya istoriya Kitaya. M. 1992.
11. Sidixmenov V. "Manjurskie praviteli Kitaya". M. 1993.
12. Xidoyatov G.A. "Jahon tarixi. Eng yangi davr" T. Sharq. 2002.
13. Qichqilov X. Fayzullaeva M. "Eng yangi tarix (1945-2010 yillar)". O'quv qo'llanma. T. Yangi nashr. 2011.
14. Xidoyatov G.A. "Jahon tarixi. Eng yangi davr" T. Sharq. 2004.
15. Karimov Sh. Shamsiddinov R. "Vatan tarixi". T. O'qituvchi. 1997.
16. Lafasov M. Xoliqov E. Qodirova D. "Jahon tarixi". T. Sharq. 2002.
17. Atadjanov Sh. Zokirov Sh. Musaev U. "Osiyo va Afrika mamlakatlari yangi tarixi (1640-1914 yillar.)". O'quv-metodik qo'llanma. T. TDPU 2011.
18. Guber A. Kim G. Xeyfets G. "Novaya istoriya stran Azii i Afriki". M. 1995.
19. Vorontsov.V. Chan Kayshi. "Sud'ba Kitayskogo Bonoparta". M. 1989.
20. Sovremenniy Kitay. (Spravochnik). M. 1973.

21. Rozaliev Yu.N. “Novaya i noveyshaya istoriya stran Azii i Afriki”. M. 1987.
22. Yur’ev M.F. tahriri ostida “Istoriya stran Azii i Afriki v novoe vremya”. I chast’. M. 1986.
23. Sirotkina V.G.tahriri ostida “Xrestomatiya po novoy istorii. 1640-1870”. Posobie dlya uchitelya. M. Prosveshenie. 1990.
24. Lyu Sintsyuan’. Chto nado znat’ ob osnovnom zakone OAR Syangan. Mejkont. izd. Kitaya. Pekin. 1996.
25. Van Tsyaulun. Syangan – osobiy adminstrativniy rayon Kitaya. Mejkont. izd. Kitaya. Pekin. 1997.
26. Tsay Chimen. “Kitayskiy faktor” i ekonomika Syangana. Mejkont. izd. Kitaya. Pekin. 1997.
27. Kitay i mir vo vsem mire. KNR. Pekin. Mejkont. izd. Sinsin’. 1996.
28. Rodrigues A. “Istoriya stran Azii i Afriki v noveyshee vremya” M. 2003.
29. Belov Ye.A. “Revolyutsiya 1911-1913 gg. v Kitae”. M. 1958.
30. Sun Yat Sen. “Sotsial’noe znachenie Kitayskoy revolyutsii”. M. 1964.
31. Yefimov G.V. “O xaraktere Sin’xayskoy revolyutsii. Narodi Azii i Afriki” M. 1972. № 3 str. 77.
32. Nikifirov V.N. “Sin’xayskaya revolyutsiya”. M. 1979.
33. Tixvinskiy S.L. “Kitay. v moey jizni (30-90 gg.)” M. 1992.
34. Kitay: ugrozi, riski, vizovi razvitiyu. Pod.red. V.V. Mixeeva. M. 2005.
35. Maomao. “Moy otets Den Syaopin”. M. 1995.
36. Chen Itszi. “Kitay: desyatiletie reform”. Ch. 1.2. M. 1996.
37. Delyusin L.P. “Kitay: polveka – dve epoxi”. M. 2001.
38. Kitay na puti modernizatsii i reform 1949-1999. M. 1999.
39. Istoriya Vostoka VI. Vostok v noveyshey period. (1945-2000gg). M. Izd. Firma “Vost.lit.” RAN. 2008
40. Galenovich Yu.M. “Puteshestvie na Rodinu Den Saopina”. M. 2002.

41. Tszyan Tszemin'. "O sotsializme s kitayskoy spetsifikoy". T. 1. M. 2002. T. II-III. M. 2004.
42. Mao Tsze-dun. "Izbrannie proizvedeniya". T. V. Pekin. 1972.
43. Mlechin L.P. "Kitay-velikaya derjava nomer odin". Peterburg. Izd. BXV. Peterburg. 2012.
44. Tsigankov M.M. tahriri ostida. Mejdunarodnie otnosheniya. Teorii, Konflikti, Dvijeniya, Organizatsii. Izd. 2. M. Infra-M. 2012.
45. Lebedeva M.M. "Mirovaya politika". M. Izd. Kno Rus. 2011.
46. Bezzubtsev – Kondakov A.E. Nado li Rossii boyat'sya Kitaya. Peterburg. Piter. 2011.
47. Achkasov V.A. Lantsov S.L. Mirovaya politika i mejdunarodnie otnosheniya. M. Izd. Aspekt Press. 2011.
48. Sokolov B.V. 100 velikix politikov. M. Veche 2012.
49. Jahon mamlakatlari. T. Yangi asr avlodi. 2012.

TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI.

1. adventure – авантюра – рисковать – авантюра - tavakkal qilmoq.
2. aggression – агрессия – нападение - агрессия – bosqinchilik.
3. agricultural – сельское хозяйство – qishloq xo'jaligi.
4. altertnative – альтернативный - muqobil.
5. altitude – высота – tepalik.
6. ammunition – боеприпасы – qurol – yarog'lar.
7. analyse – анализировать – tahlil qilish.
8. approval – одобрение – ma'qullamoq.
9. arena – арена – maydon, minbar.
10. armed – вооружённый – qurollangan.
11. army – армия, войско – armiya, qo'shin.
12. armistice – перемирие – yarashuv.
13. arrest – арестовывать – qamoqqa olish.
14. Asia – Азия – Osiyo.
15. aspect – точка–зрения – nuqtai-nazar.
16. assault – нападение, штурм – hujum qilish.
17. authority – авторитет – obro'-e'tibor.
18. autobiograpty – автобиография – tarjimai hol.
19. basking – поддержка – qo'llab-quvvatlash.
20. barrier – барьер, препятствие – to'siq.
21. battalion – батальон – batal'on.
22. blockade – блокада – qamal.
23. block – квартал, жилищный массив – mavze.
24. boundary – граница – chegara.
25. capital – капитал – sarmoya.

26. China – Китай – Xitoy.
27. christian – христианин – xristian diniga mansub kishi.
28. unemployment – безработица – ishsizlik.
29. explosion – взрыв – portlash.
30. influence – влияние – ta'sir.
31. military – военный - harbiy.
32. war – война – urush.
33. warrior – воин – jangchi.
34. commander-in-Chief – главнокомандующий – bosh qo'mondon.
35. demonstration – демонстрация – namoyish.
36. democracy – демократия – demokratiya.
37. power, state - держава – buyuk davlat.
38. elector – избиратель – saylovchi.
39. intervention – интервенция – интервенция – aralashish.
40. contraband – контрабанда – kontrabanda.
41. contribution – контрибуция – tovon puli.
42. confiscation – конфискация – musodara etish.
43. conflict – конфликт – mojaro.
44. peasant – крестьянин – dehqon.
45. crisis – кризис – inqiroz.
46. mission – миссия – missiya.
47. peaceloving – миролюбивый – tinchliksevar.
48. monarchy – монархия – monarxiya.
49. revolt – мятеж – isyon.
50. nationalization – национализация – milliylashtirish.
51. bad harvest – неурожай - hosilsizlik.
52. pipeline – нефтепровод – neft' quvuri.